

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 113 (1712), 2026-yil 5-iyun, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## O‘ZBEKISTON – ROSSIYA: KENG QAMROVLI MUNOSABATLARNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQLDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 4-iyun kuni amaliy tashrif bilan Sankt-Peterburg shahriga keldi.



“Pulkovo” xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o‘rinbosari Denis Manturov, shahar gubernatori Aleksandr Beglov hamda boshqa rasmiylar kutib oldi. Sankt-Peterburg shahriga amaliy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish hamda mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 20 foizga oshdi. Sanoat, energetika, metallurgiya, transport, kimyo sanoati va iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida yirik loyihalarni amalga oshirish davom etmoqda. Tovar ayirboshlashdagi joriy sur‘atli saqlab qolish, kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish hamda hududlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi. Faol madaniy-gumanitar almashinuvlarni yanada kengaytirishga alohida e’tibor

qaratildi. Shu kunlarda Mariinskiy teatrida Georg Fridrix Gendelning “Tamerlano” operasining premyerasi bo‘lib o‘tganida hamda “Ermitaj” davlat muzeyida O‘zbekiston amaliy san’ati ko‘rgazmasi ochilgani qayd etildi. Yetakchilar bo‘ljak tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin O‘zbekistonda integratsiyalashgan atom elektr stansiyasining birinchi energiya blokini qurish ishlariga start berdilar.

Marosimda teleko‘prik orqali Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bosh direktori Rafael Grossi ham ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari Vladimir Putin va Rafael Grossiga ushbu loyihaning ro‘yobga chiqarilishini shaxsan qo‘llab-quvvatlaganlari va ko‘rsatilgan e’tibor uchun minnatdorlik bildirdi. Mamlakatimizda birinchi atom elektr stansiyasini barpo etishda ishtirok etayotgan O‘zbekiston va Rossiya mutaxassislariga birgalikdagi sa’y-harakatlar va yuksak professionallik uchun alohida tashakkur aytiladi.

Mazkur loyihaning amalga oshirilishi O‘zbekistonning texnologik, industrial va ilmiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berib, yangi tarmoq — atom energetikasini rivojlantirish uchun asos yaratishi qayd etildi. Loyiha kichik modulli atom generatsiyasi hamda yirik hajmli energetika sohasidagi eng so‘nggi yutuqlarni o‘zida mujassam etgan.

O‘zbekiston yetakchisi xavfsizlik loyihaning mutlaq va so‘zsiz sharti ekanini alohida ta’kidlandi. Stansiyani qurish va uni ekspluatatsiyaga tayyorlash ishlari eng zamonaviy xalqaro standartlar, ilg‘or muhandislik yechimlari asosida hamda Xalqaro atom energiyasi agentligining doimiy nazorati ostida bajarilmoqda.

Ushbu ulkan loyihaning amalga oshirilishi va uning natijalari O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

5-iyun kuni davlatimiz rahbari 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining asosiy tadbirlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## GONKONG BILAN MANFAATLI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Syangan (Gonkong) maxsus ma’muriy hududi Administratsiyasi rahbari Li Szyachao boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Muloqot avvalida Li Szyachao davlatimiz rahbariga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpingning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston — Xitoy hamkorligini, shu jumladan, Gonkong bilan hududlararo almashinuvlar va amaliy hamkorlikni kengaytirish orqali yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Suhbat chog‘ida so‘nggi yillarda O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi do‘stlik va yangi davrdagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilmoqda. May oyida Pekin shahrida Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va Sian shahrida uchinchi Hududlararo forum muvaffaqiyatli o‘tkazildi, Gonkongda iqtisodiy forum va sanoat ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi, O‘zbekiston savdo uyi ochildi.

O‘zbekiston hududlarining Gonkong bilan iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish uchun mavjud salohiyatdan samarali foydalanish muhimligiga alohida e’tibor qaratildi. Toshkent shahriga Gonkong

ishbilarmon doiralari vakillaridan iborat katta delegatsiya tashrif buyurgani ushbu yo‘nalishdagi sheriklikni yanada rivojlantirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini joriy etish, ta’lim, turizm va ishbiarmonlik almashinuvlarini rivojlantirish hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar va fuqarolarga konsullik xizmatlari ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishni nazarda tutuvchi kompleks hamkorlik dasturini qabul qilish muhimligi ta’kidlandi.

“Yashil” energetika, qishloq xo‘jaligi, biotexnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, fintex, innovatsion startaplar, sun‘iy intellekt va boshqalar ustuvor sohalar sifatida qayd etildi.

Hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish, shuningdek, Ishbilarmonlar kengashini tashkil etish hamda yaqin fursatda Gonkong bilan ikki tomonlama asosda vizasiz tartibni joriy etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

O‘ZA

## AMALIY ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-iyun kuni Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti va qardosh xalqini mamlakatning 2027-2028-yillarda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy bo‘lmagan a‘zosi etib saylangani munosabati bilan samimiy tabriklandi.

O‘zbekiston yetakchisi mazkur muvaffaqiyat Qirg‘izistonning faol tashqi siyosati hamda mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga qo‘shayotgan salmoqli hissasini xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirof etilayotganining yorqin ifodasi ekanini ta’kidlandi.

Tomonlar xalqaro maydonda yaqindan muvofiqlashtiruv va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar.

O‘ZA

## GLOBAL EKOLOGIK JAMG‘ARMANING SAKKIZINCHI ASSAMBLEYASI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Hurmatli assambleya ishtirokchilari! Xonimlar va janoblari!

Sizlarni asrlar davomida Sharq va G‘arbni, turli madaniyat va sivilizatsiyalarni, ilm-fan va amaliy bilimlarni bog‘lab kelgan qadimiy Samarqand shahrida samimiy qutlash biz uchun ulkan sharafdur.

Bugungi yig‘ilish 5-iyun — Butunjahon atrof-muhit kuni arafasida o‘tayotgani alohida ramziy ma’noga ega. Shu munosabat bilan anjuman ishtirokchilarini ushbu muhim sana bilan chin dildan tabriklayman.

Barchangiz yaxshi xabardorsiz, bugungi kunda insoniyat misli ko‘rilmagan inqirozlar — iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolib borishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi tahdidlarga duch kelmoqda.

Bu kabi muammolarni hal etishda Global ekologik jamg‘arma alohida o‘rin egallab kelmoqda. 186 ta davlatni birlashtirgan ushbu noyob global hamkorlik platformasi hozirga qadar 170 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag‘ni ekologik loyihalar uchun safarbar etgani tahsinga sazovordir.

Ming afsuski, iqlim o‘zgarishi oqibatida yuzaga kelgan cho‘llanish, yer degradatsiyasi, muzliklarning erishi va suv tanqisligi Markaziy Osiyo uchun asosiy tahdid bo‘lib qolmoqda. Jahon banki tahliliga ko‘ra, mintaqamizda qariyb 37 million kishi suv tanqisligi kuchli bo‘lgan hududlarda yashamoqda va 2050-yilga borib, bu ko‘rsatkich 75 millionga yetishi mumkin.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Yangi O‘zbekiston mavjud muammolar ko‘lamiga qaramay, ekologik transformatsiyani yangi taraqqiyot modeli sifatida ko‘rmqda. Shu bois, biz tizimli loyiha boshqaruviga o‘tib, atmosfera havosini muhofaza qilish, bioxilma-xillik, chiqindilarni boshqarish, ko‘kalamzorlashtirish, ekologik ta’lim va madaniyatni qamrab olgan beshta milliy loyihani amalga oshirmoqdamiz.

Mazkur tashabbuslar doirasida 2030-yilga qadar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini respublika hududining 21 foizigacha kengaytirish, havoga zararli tashlamalarni 10,5 foizga qisqartirish hamda har bir hududda dendrologiya va botanika bog‘larini tashkil etish rejalashtirilgan.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha joriy yilda 2 ta, kelgusi ikki yilda yana 9 ta zavodni ishga tushirish belgilangan, ular yiliga 5,5 million tonna chiqindini qayta ishlash orqali 1,1 million tonna issiqxona gazlari tashlamalarini qisqartirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ekologik ta’lim va ilm-fanning yagona ekotizimi shakllantirilib, “Green University” negizida 10 ta ilmiy-tadqiqot instituti va markaz hamda 14 ta “yashil” texnikum birlashtirildi, qariyb 2 million yoshning ekologik savodxonligini oshirish jarayoni boshlab yuborildi.

Biz o‘tgan asrda yuz bergan Orol fojiasiga yangicha yondashib, uning oqibatlarini bartaraf etish, Orolbo‘yi hududini tiklanish, ilm-fan va innovatsiyalar maydoniga aylantirish yo‘lida 2 million gektardan ortiq unumdorligini yo‘qotgan yerlarni qayta tiklamoqdamiz.

Mintaqaviy sa’y-harakatlarni birlashtirish va amaliy yechimlarni joriy etish maqsadida “Eco Expo Central Asia” platformasi yo‘lga qo‘yildi, u hududlar va sanoatdagi ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarga moliyaviy resurslar va “yashil” yechimlarni jalb etishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, Sizlarni tashkil etilgan ko‘rgazmaga taklif qilaman. Yashil loyihalarimiz manfaatli kelishuvlarga asos bo‘ladi degan umiddaman.

Qadrla do‘stlar!

Albatta, iqlim o‘zgarishining tobora kuchayib borayotgan salbiy ta’siri bizdan tezkor amaliy qadamlarni talab qilmoqda. Assambleya doirasida bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqchimiz va ularni hayotga tatbiq etishda

Sizlarning qo‘llab-quvvatlashingiz biz uchun muhim ahamiyatga ega.

**Birinchiidan.** Samarqandni “Markaziy Osiyoning yashil investitsiyalar va innovatsiyalar poytaxti” deb e’lon qilishni taklif etamiz.

Biz Samarqandni mintaqaviy “yashil iqtisodiyot”, barqaror rivojlanish va iqlim moliyasi markaziga aylantirishni, shaharni pilot “yashil hudud” sifatida rivojlantirishni hamda ushbu tajribani keyinchalik respublikaning boshqa shaharlariga ham tatbiq etishni maqsad qilganmiz.

**Ikkinchiidan.** Bundan 600 yil muqaddam Mirzo Ulug‘bek Samarqandni ilm-fan markaziga aylantirgan bo‘lsa, bugungi kunda Kolumbiya universitetining Barqaror rivojlanish markazi hamkorligida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti qoshida Ulug‘bek nomidagi Barqaror rivojlanish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilmoqda.

Instituti hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini yashil va barqaror rivojlanish asosida transformatsiya qilish, xalqaro ilmiy markazlar va moliya institutlarini jalb etish bo‘yicha yetakchi ilmiy-tahliliy platforma bo‘ladi, uning strategik boshqaruvi esa Prezident huzuridagi Vasiiylik kengashi orqali amalga oshiriladi.

**Uchinchiidan.** Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida Iqlim o‘zgarishi va gidrometeorologiya milliy markazi tashkil etilmoqda.

Markaz gidrometeorologiya, erta ogohlantirish, gliyatsiologiya, iqlim ta’sirini baholash va issiqxona gazlari monitoringini uyg‘unlashtirib, iqlim prognozlarini, modellashtirish, moslashuv va mitigatsiya dasturlari, mintaqaviy hamkorlik hamda WMO GAW va NASA AERONET dasturlarida ishtirok etish uchun institutsional zamin yaratadi.

**To‘rtinchiidan.** Yaqinda Qozog‘iston Prezidenti bilan “Toza havoy” davlatlararo konsorsiumini tashkil etish bo‘yicha kelishuvga

erishdik. Uning faoliyati “yashil” moliyaviy jalb etish, o‘rmon-melioratsiya, ilmiy tadqiqotlar, sanoatni ekologik modernizatsiya qilish hamda monitoring va nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Mintaqaning barcha davlatlarini Konsorsium faoliyatiga qo‘shilishga taklif etamiz.

**Beshinchiidan.** Cho‘llanishga qarshi kurash instituti negizida Orolbo‘yida cho‘llanish oqibatlarini yumshatish, “yashil” qalqonlar barpo etish va iqlim moslashuviga qaratilgan “cho‘l iqtisodiyoti” tashabbusini ilgari surib, uni GEFning ustuvor yo‘nalishlari bilan hamohang holda xalqaro moliyaviy hamda texnik ko‘mak asosida amalga oshirishni taklif etamiz.

**Oltinchiidan.** 2027-yilgi Toshkent investitsiya forumi “Barqaror rivojlanish va yashil investitsiyalar” mavzusida o‘tkazilib, uning doirasida “Eco Expo Central Asia” xalqaro ko‘rgazmasi tashkil etiladi.

Forumda har bir hudud yashil investitsiyalarini jalb qilish uchun kamida 100 ta istiqbolli loyihani tayyorlab, investorlarga taqdim etadi.

Yana bir muhim tashabbusimizni e’lon qilmoqchiman. O‘zbekiston Global ekologik jamg‘arma donor mamlakatlari qatoriga qo‘shilishga tayyor. Biz Jamg‘arma Kengashi a’zosi sifatida qo‘shma mintaqaviy tashabbuslarni amaliy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilganmiz.

Bugun o‘z ishini boshlayotgan mazkur Assambleya ekologik hamkorlikning yangi mintaqaviy arxitekturasi shakllantirishda muhim maydonga aylanishiga qat’iy ishonaman.

Anjuman ishiga ulkan muvaffaqiyatlar, barchangizga yangi yutuqlar va omad, oilaviy baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## Uchinchi Renessans poydevori



SHU BUYUK MILLATNING UMIDIMAN MEN!

3



# KAM TA'MINLANGANLARGA DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM KO'RSATILADI

## Sharh

Abdumannob RAHIMOV,  
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi

**O'zbekiston – ijtimoiy davlat. Ushbu prinsip yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda alohida mustahkamlab qo'yildi. Ijtimoiy davlatning bosh maqsadi yoshlarga sifati ta'lim berish, aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni qo'llab-quvvatlash, kam ta'minlanganlarni uy-joy bilan ta'minlashdan iborat. Shuningdek, aholi bandligi, xavfsiz mehnat sharoiti va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat qurilishidir.**

Ijtimoiy davlat barpo etish — Prezidentimizning eng oliy maqsadlaridan. So'nggi yillarda aynan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, adolati siyosat yuritish, inson resurslarini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida e'tirof etildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa ushbu sohada ulkan islohotlarning huquqiy asosini mustahkamladi va unda ijtimoiy davlat prinsipi rasman belgilab qo'yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanadi. Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidir.

Bundan tashqari, Asosiy qonunimizda davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari turmushi sifatini oshirish, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratish hamda muhim hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan choralar ko'rish, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari hamda xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi,

ularning ishga joylashishi, ta'lim olishiga ko'maklashishi, zarur axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlashi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Albatta, bular ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy va ma'naviy himoya qilishga oid masalalar. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 29-moddasida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatilishi ham belgilangan. Bu aynan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ya'ni kam ta'minlangan fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatish konstitutsiyaviy darajada davlat tomonidan kafolatlanganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda kam ta'minlangan shaxslarga o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishda malakali yuridik yordam olishi uchun huquqiy asos sifatida 2023-yil 16-iyunda "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishini alohida e'tirof etish joiz.

Joriy yil 20-aprel kuni O'zbekiston Prezidenti "Kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va

o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2024-yilda mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylilikning holati to'g'risidagi axborotida berilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadida Konstitutsiyaviy sud tomonidan ishlab chiqilgan e'tiborga molik. Xo'sh, ushbu qonunni ishlab chiqishga qanday omillar sabab bo'ldi, unga zarurat nimada edi?

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 55-moddasida har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanini, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

Biroq barcha fuqarolar bunday holatda sudga shikoyat qilish borasida zarur huquqiy bilimiga ega bo'lavermaydi. Bunday hollarda fuqarolar o'z hisobidan huquqiy yordam olishga ehtiyoj sezadi. Kam ta'minlangan shaxslar esa huquqiy yordam olishi uchun zarur mablag'ga ega bo'lmasligi mumkin. Fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilib, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida advokat xizmatidan foydalanish, huquqiy yordam olishga ehtiyoj sezadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi islohotlar, shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada agar qonun fuqarolar va yuridik shaxslarning fikricha, ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari buzilayotgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq kelmasa hamda sudga ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llangan va sudga himoya qilinish barcha boshqa vositalardan foydalanib bo'lingan bo'lsa, ular qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga haqli ekanini belgilangan.

Masalan, Konstitutsiyaviy sudga 2025-yilda 1844 ta, 2026-yilning birinchi

choragida 576 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 78 foizi bo'yicha tushuntirish berilgan va 22 foizi taalluqliligi bo'yicha tegishli davlat organlariga yuborilgan. Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan murojaatlarning 91 foizida sud vakolatiga taalluqli bo'lmagan masalalar ko'tarilgan. Ushbu murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq belgilangan tartibda hal etilgan.


O'tgan yili kelib tushgan murojaatlarning 262 tasi bevosita Konstitutsiyaviy sud vakolatiga tegishli bo'lib, ular Konstitutsiyaviy sud sudyalari tomonidan o'rganib chiqilgan hamda mualliflarga asoslantirilgan tushuntirishlar berilgan. Tahlillarga ko'ra, kam ta'minlangan shaxslar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilganda, ularga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish amaldagi qonunda tartibga solinmagan edi.

Mazkur qonun bilan belgilangan tartib-taomillar to'liq yoki qisman davlat hisobidan ko'rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirishni nazarda tutadi.

Kelgusida ushbu qonun amalda qo'llanishidan qanday natijalar kutish mumkin? Amaldagi qonunga kiritilgan qo'shimchalar tufayli fuqarolarning huquq va erkinliklari sud orqali samarali himoya etiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida belgilangan huquq kafolatlanadi. Aholing qonunlarda buzilgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini tiklash yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkoniyati yanada kengayadi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish darajasi yanada oshadi, aholining sudlarga ishonchi mustahkamlanadi.

Eng muhimi, Konstitutsiyaviy sud muhokamasiga kiritilgan masalalarni tayyorlash va ko'rib chiqishda advokatlar ishtiroki kengayadi. Bu esa advokatura institutining nufuzi va ahamiyati yanada oshishiga xizmat qiladi.

## AMIN HAMROYEVICH TOJIYEV



Butun hayoti va mehnat faoliyatini mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga bag'ishlagan taniqli davlat va jamoat arbobi, mehnat faxriysi Amin Hamroyevich Tojiyev 2026-yil 4-iyun kuni 79 yoshida vafot etdi.

A.Tojiyev 1947-yil 12-aprelda To'rtko'l tumanida tug'ildi. O'rta maktabni tugatganidan so'ng Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislar instituti (hozirgi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislar instituti milliy tadqiqot universiteti)ni muhandis-mexanik mutaxassisligi bo'yicha tamomladi. Mehnat faoliyatini 1968-yil To'rtko'l tumanidagi Al-Xorazmiy nomidagi jamoa xo'jaligining texnika xavfsizligi muhandisi sifatida boshladi. Keyinchalik To'rtko'l, Ellikqal'a, Amudaryo tumanlarida rahbarlik lavozimlarida ishladi.

Katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan A.Tojiyev Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi,

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV,  
A. ARIPOV, A. ORINBAYEV, F. ERMONOV, S. TURDIYEV

qishloq xo'jaligi vaziri, O'rmon xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i, O'zbekiston Respublikasi davlat agrosanoat qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari kabi mas'ul lavozimlarda fidokorona mehnat qildi.

A.Tojiyev o'zining 50 yildan ziyod mehnat faoliyati davomida Orolbo'yi mintaqasidagi murakkab sharoitda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilma tarmoqlarini yaratish, aholining turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirdi.

Xususan, suv tanqisligini bartaraf etish maqsadida "Tuyamo'yin — Nukus — Taxtako'pir" sug'orish tarmog'i va ko'plab ijtimoiy va madaniy obyektlarni barpo etishda jonbozlik ko'rsatdi.

U nafaqaga chiqqanidan keyin ham Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib, ekologik muhitni yaxshilash, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, keng ko'lami qurilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borishga qaratilgan loyihalarni ro'yobga chiqarish, keksa avlod manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga o'zining boy hayotiy bilim va tajribasini baxsh etdi.

A.Tojiyevning mamlakatimizni taraqqiy ettirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "Elyurt hurmati", "Do'stlik" va "Mehnat shuhrati" ordenlari, "Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan mexanizator" faxriy unvoni bilan mukofotlangan edi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, yoshlarning mehribon ustoz, samimiy va kamtarin inson Amin Hamroyevich Tojiyevning xotirasini qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.



**Yozning dastlabki kuni davlatimiz rahbarining san'at va madaniyat ahli bilan uchrashuvida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldim. Ochiq'ini aytсам, bu shunchaki navbatdagi yig'ilish yoki rasmiy tadbir emas, balki mamlakat yetakchisining ijodkorga, uning dardiga, tashvishiga, orzu va maqsadlariga bo'lgan kuyunchak munosabatini yana bir bor aks ettirgan samimiy muloqot edi.**

Biz ko'pincha katta natijalarni ko'ramiz, ammo ularning ortida qanday mehnat turganini har doim ham his qilavermaymiz. Uchrashuvda xayolimdan bir fikr o'tdi: bir vaqtning o'zida davlat boshqarish, mamlakat taraqqiyoti uchun kechay kunduz mehnat qilish, tashqi va ichki siyosat, iqtisodiyot, xavfsizlik, ijtimoiy sohalar qatori madaniyat va ma'naviyat masalasiga ham alohida ahamiyat qaratish uchun insonda qanchalar kuch-g'ayrat, fidoyilik bo'lishi kerak.

Uchrashuv jarayoni meni beixtiyor har kungi ijod, ish va turmush tashvishlarini bir lahza chetga surib, atrofimizda kechayotgan o'zgarishlarga yana bir bor qalban va idrok bilan nazar tashlashga undadi.

Qiyofasi kun sayin yangilanayotgan shahar va qishloqlarimiz... Insonlarning tobora farovonlashib borayotgan turmush tarzi... Son-sanoqsiz mehmonxonalar, zamonaviy maskanlar, yurtimizga qiziqib kelayotgan xorijlik sayyohlar... Sportdan tortib, ilmfan, madaniyat va iqtisodiyotgacha bo'lgan sohalaridagi yutuqlarimiz... Chet el matbuoti, siyosatchilari va xalqaro ekspertlarning hayrat bilan O'zbekiston haqida bildirayotgan ijobiy fikrlari... Yurtimizdagi o'zgarishlardan lol ekanini yashira olmayotgan sayyohlar-u kattakichik davlatlarning rahbarlari...



Muzaffar ERKINOV,  
kinorejissor

Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Lekin bir haqiqatni ham tan olish kerak: bu yutuqlar zamirida yurti va xalqi taqdiri uchun tinimsiz mehnat qilayotgan, o'z halovatidan kechayotgan bir insonning ulkan irodasi va mas'uliyati turganini anglayapmizmi?

Ijod va mehnat faoliyatim davomida bir haqiqatni anglaganman: xoh adabiyot bo'lsin, xoh kino, xoh boshqa soha — buyuk asarlar va buyuk shaxslar ko'p jihatdan davlatning birinchi rahbari dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq bo'ladi.

Bu haqiqatni "Abdulla Oripov" filmi ishlab jarayonida yanada chuqurroq anglagan edim. Nega aynan o'tgan asrning 60-yillarida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev kabi ulkan ijodkorlar bir vaqtning o'zida yetishib chiqdi? Nega aynan bir davrda "O'zbekiston — Vatanim manim" kabi xalq ruhini uyg'otgan asarlar yaratildi? Menimcha, bunga sabab mash'um mustamlaka tuzum qatag'onlaridan keyin boshlangan muayyan ma'nodagi erkin nafas va albatta, Sharof Rashidovning respublika rahbari sifatida millat ma'naviyatiga bergan e'tibori bo'lgan.

Bu jarayon nafaqat adabiyotda, balki kinoda ham yaqqol namoyon bo'ldi. Milliy kinomizga yangi nafas olib kiritildi. Shuhrat Abbosov, Ali Hamroyev, Elyor Eshmuhamedov kabi yirik darg'alar maydonga chiqdi.

Odamlarga gapirish, rahbarlarni tanqid qilish oson. Salbiy fikr tez ommalashadi. Ba'zan o'zimiz ham yaxshi narsani ko'rishdan ko'ra, kamchilik izlashga moyilmiz.

Ammo haqiqat shuki, 365 kun, o'n ikki oy davomida xalqning dardi, yurtning ertasi bilan yashab, uning farovonligi uchun tinimsiz mehnat qilish har kinning ham qo'lidani kelmaydi.

Bugungi tezkor zamonda ba'zan yoshi ulug' insonlar emas, hatto yoshlar ham tez charchab qolayotganini tan olish kerak. Ammo Prezidentimiz faoliyatiga nazar tashlasak, biz unda charchoqni emas, aksincha, ulkan mas'uliyat, tinimsiz harakat va g'ayratni ko'ramiz.

Tarixiy uchrashuv ham ertalabdan boshlanib, kechgacha davom etdi. Prezidentimiz so'zlashni istagan deyarli har bir ijodkorini diqqat bilan tingladi. Uchrashuvda nafaqat sohadagi yutuqlar, balki yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar, og'riqli masalalar haqida bemalol gapirib kelgan inson sifatida buni tan olishim kerak: Prezidentimiz rahbari har bir fikri sabr bilan eshitdi, har bir masalaga alohida munosabat bildirdi.

Uchrashuv yana ancha davom etishi mumkin edi. Ammo Prezidentimiz yig'ilishda ishtirok etayotgan yoshi ulug' san'at va madaniyat faxriylarini o'ylab, ularni uzoq vaqt urintirib qo'ymaslik kerakligini inobatga olib muhobotni yakunlashni taklif qildi. Bu ham insonga e'tiborning yana bir ko'rinishi bo'ldi.

Uchrashuvda men ham so'zga chiqdim. Rostini aytсам, sahnada, kameralar qarshisida yillar davomida bemalol gapirib kelgan inson sifatida buni tan olishim kerak: Prezidentimiz qarshisida hayajonlanib ketdim. Hatto nima deganimni ham keyin yaxshi eslay olmadim.

Buyuk inson qarshisida har qanday odamni salobat bosadi.



**Ijod va mehnat faoliyatim davomida bir haqiqatni anglaganman: xoh adabiyot bo'lsin, xoh kino, xoh boshqa soha — buyuk asarlar va buyuk shaxslar ko'p jihatdan davlatning birinchi rahbari dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq bo'ladi.**

Lekin Prezidentimiz hayajonimni his qildi, gapimni bo'lmasdan, aksincha, oxirigacha tinglab, milliy kino rivoji uchun davlat tomonidan yanada keng imkoniyatlar yaratilishini ta'kidladi.

Yana bir jihat. So'nggi o'n yillikda aynan davlatimiz rahbari tashabbusi va e'tibori tufayli o'zbek kinosisida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangi filmlar yaratildi, xalqaro festivallarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi, milliy kinoning nufuzi oshdi.

Biroq hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar ham ko'p.

Uchrashuvning ahamiyati shunda ediki, unda muammolarning faqat tashqi ko'rinishi emas, balki ularning ildiz sabablari muhokama qilindi. Kino sohasida ijodiy erkinlikni ta'minlash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, zamonaviy va shaffof tizim yaratish bo'yicha muhim to'xtamga kelindi.

Xususan, milliy filmlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish maqsadida global kino platformalari bilan hamkorlik kuchaytirilishi,

"O'zbekfilm"ga milliy maqom berilishi, davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan filmlarda reklama va targ'ibot xarajatlari uchun byudjetning 30 foizigacha mablag' ajratilishi, kinofilmlar ishlab chiquvchilar barcha soliqlardan ozod etilishi, milliy kengash va badiiy kengashlar tugatilishi haqidagi qarorlar kino sohasi vakillari tomonidan katta mamnuniyat bilan qabul qilindi.

Chunki yaxshi filmning taqdiri faqat uni suratga olish bilan hal bo'lmaydi. Uni tomoshabingga yetkazish ham san'atning bir qismi. Dunyo tajribasi ko'rsatmoqdaki, kuchli targ'ibot film muvaffaqiyatining kamida yarmini ta'minlaydi.

Shuningdek, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan filmlar namoyishidan tushgan mablag'ning bir qismi ijodiy jamoalarni rag'batlantirishga yo'naltirilishi haqidagi tashabbus ham soha uchun muhim yangilik bo'ldi.

Natija uzoq kuttirmadi. Muloqot davomida ilgari surilgan tashabbus va takliflarning aksariyati ertasi kuni Prezidentimizning "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida o'z aksini topdi. Bu sohada boshlangan islohotlar yangi bosqichga chiqqanidan darak.

Prezidentimiz uchrashuv avvalida juda muhim fikrni aytdi: "Davlatni iqtisodiyot ko'taradi, qonun boshqaradi, armiya himoya qiladi. Lekin qaysi mamlakat adabiyot va madaniyatga e'tibor bersa, kelajagi mustahkam bo'ladi". Bu so'zlar har bir ijodkor uchun nafaqat e'tirof, balki katta mas'uliyat hamdir.

Uchrashuvdan keyin bir narsaga yana bir bor ishonch hosil qildim: mamlakatimizda san'at va madaniyat sohasiga qaratilayotgan e'tibor tasodifiy emas. Bu uzoqni ko'zlab yuritilayotgan davlat siyosati. Muloqotdan so'ng kino, teatr, musiqa va umuman, madaniyat sohasida yangi davr boshlanishiga, o'zbek milliy san'ati va kinosi yanada yuksak cho'qqilarni zabt etishiga ishonchim yanada mustahkamlandi. Biz, ijodkorlar esa bu ishonchga munosib bo'lishimiz, xalqimiz va Vatanimiz uchun xizmat qiladigan, milliy g'ururimizni yuksaltiruvchi asarlar yaratishimiz kerak.

Yana takrorlagim kelyapti: har qanday buyuk asar, har qanday ijodiy yuksalish ortida davlat rahbarining ma'naviyat va madaniyatga bo'lgan munosabati turadi. Tarix ham bu haqiqatni ko'p marta isbotlagan. Zero, davlat tomonidan berilgan e'tibor va ishonch ijodkorga, ya'ni ijodga qanot beradi.



MILLIY  
KITOBXONLIK  
HARAKATI

Uchinchi Uyg'onish davriga poydevor qo'yish  
ishtiyoqida yashayotgan xalqimiz uchun Milliy kitobxonlik  
harakati mustaqillikning 35 yillik to'yi arafasida tortiq  
etilgan eng yaxshi sovg'a bo'ldi.

# SHU BUYUK MILLATNING UMIDIMAN MEN!

2026-yil 5-iyun, 113-son

Inson baxtli yashashi uchun Vatanini yaxshi ko'rishi kerak!  
Bir qarashda balandparvozday eshittiriladigan ushbu fikr zamirida inkor  
etib bo'lmas hayotiy haqiqat bor. Otamakonga muhabbat zamirida  
barcha ezguliklar mujassam. Yurtini yaxshi ko'rgan kishi hech qachon  
shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa ko'rmaydi. Nafs izmiga yurmagan  
kishi qalb xotirjamligiga erishadi. Buni Hazrat Navoiyning:

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur  
Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur,  
degan hikmati bilan ifodalash mumkin.



Boboravshan G'oziddinov,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Prezidentimizning shu yil 25-may kuni mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o'g'il-qizlarga yo'llagan tabrigini o'qiy turib, xayolimdan shu fikrlar o'tib, ko'z oldimga katta hayot sari oshiqayotgan navqiron avlod keldi. Ayni paytda undan bir muddat oldingi yana bir muhim voqea — Milliy kitobxonlik harakatiga start berilganini esladim. Ha, Uchinchi Uyg'onish davriga poydevor qo'yish ishtiyoqida yashayotgan xalqimiz uchun Milliy kitobxonlik harakati mustaqillikning 35 yillik to'yi arafasida tortiq etilgan eng yaxshi sovg'a bo'ldi. Bularning barchasida qandaydir umumiy kayfiyat, mushtarak jihat bor, nazarimda.

Joriy yil maktablarni 472 ming o'g'il-qiz bitirib, katta hayotga yo'llanma oldi. Bu 472 ming orzu, ana shuncha ishonch va tayanch degani! Salkam qirq million nufusli xalqning ishonchi, bobolar makon tutgan tabarruk Vatan tayanchi!

Ularni tayanch deyishga to'la asosimiz bor. Masalan, bu yil birinchi marta 11 mingdan ziyod o'g'il-qiz maktabni oltin va kumush medallar bilan tamomladi. Hali maktabni tugatmay turib, yurtimiz va chet eldagi nufuzli oliyog'ohlarga qabul qilingan yoshlar ham talaygina. Ulardan 171 nafari dunyoning yetakchi universitetlariga qabul qilindi. Mana shunday katta yutuqlarga erishayotgan yoshlar Vatanga xizmat qiladigan, uning sha'nini ko'taradigan avlod bo'ladi-da!

Ular qabar, shoir do'stimiz Zohidjon Olovning quyidagi misralari yodga tushadi:  
Tomiririda oqar daholar qoni,  
Kim bilmas Xorazmiy, ibn Sinoni!  
Tog'lardan balanddir shavkat-u shoni  
Shu buyuk millatning umidiman men!

Yangi O'zbekiston yoshlari mazkur misralarni shiordek jo'rovov bo'lib takrorlayotganday, nazarimda. Axir ular yana bir Uyg'onish davrining mustahkam poydevori, elimiz umidi bo'lib ulg'aymoqda.

Albatta, yutuqlar zamirida islohotlar turibdi. Maktabdagi darsliklar ta'minoti yaxshilandi, o'qituvchilarga imtiyoz va imkoniyatlar berildi. Oliy ta'limdagi qabul jarayonidan boshlab ilmiy darajagacha bo'lgan barcha bosqichda qulay muhit yaratildi. Bular jamiyatda ilm olishga rag'batni kuchaytirdi. Ha, kuchli jamiyatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Uni kuchli shaxslar yaratadi.

Masalan, Amir Temur bobomiz dunyoning to'rt burchidan o'z kasbining, ishining ustasi bo'lgan shaxslarni Samarqandga olib keldi. Ilm-fan, madaniyatga katta e'tibor qaratdi. Natijada ana shu imkoniyatlar qanoti ostida Ikkinchi Uyg'onish davriga asos solgan avlod ulg'aydi.

Yangi O'zbekistonda ham xorijning eng ilg'or oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatilib, yurtimizda ularning filiali ochilmoqda. Chet eldan tajribali o'qituvchilar, umuman, barcha sohaning yetakchi mutaxassislari jalb etilyapti. Lo'nda qilib aytganda, bobolarimizning shonli izidan zamonamizga mos tarzda o'z yo'limizni ochyapmiz. Ana shunday muhim pallada yoshlarning ilm-ma'rifat yo'lida

sobitqadamligi katta voqea. Ular orasida o'ziga xos poyga — kim kattaroq ilmiy yutuqqa erishadi degan mazmundagi sog'lom raqobat kuchaygan. Maktablarning o'quvchilari fanlardan ko'proq milliy sertifikat olgani haqida xabarlar tez tarqaladi. O'quvchilar ham, o'qituvchilar ham mazkur yutuqni bir-biriga yetkazib, o'zlari ham shu darajaga yetishi kerak ekanini ta'kidlaydi. Inson nima haqida ko'p o'ylasa, uni asli, tafakkuri shundan iborat degan fikr bor. Jamiyat ham insonga o'xshaydi. Uning qaysi yo'ldan ketayotganini ko'rib, kelajagini taxmin qilish mumkin. Jamiyat tanlagan yo'l esa insonlar orasida eng ko'p muhokama qilinayotgan, qiziqish bildirilayotgan mavzularga qarab aniqlanadi. Bugun jamiyatimizda eng ko'p tilga olinayotgan mavzu o'qituvchining obro'sini oshirish, yoshlar ta'limi, sohalarga sun'iy intellektni keng joriy etishdir. Mamlakatimiz yetakchisi barcha soha, hatto iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili jarayonida ham ta'lim, xususan, o'qituvchining obro'si haqida to'xtalib o'tadi. Mazkur omilning o'ziyoq yangi O'zbekistonda buniyod etishda ilm-ma'rifat yo'li tanlangani, bu boradagi islohotlar ortga qaytmas tus olganini anglatadi.

Shu o'rinda yaqin tariximizni eslamochi edim. Bugun qirq yoshning nari-berisida bo'lgan bizning avlod maktabga borganida ta'limda tarqoqlik boshlangan edi. O'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklari sabab sohada chinakam fidoyilar va boshqa ish qo'lidan kelmaydigan kadrlarga qolgandi. Keyinchalik fidoyilar safi siyraklashib, tajribasiz kadrlar safi kengayib bordi. Yil sayin o'qituvchining obro'si tushar, buning o'ziga xos sabablari bor edi. O'qituvchilar o'quv yilining yarmidan ko'pini paxta dalasida o'tkazardi. Chopiq

jamiyatda ikki xil standart shakllanishiga olib keldi.

Bir tomondan biz kitob o'qigan anoyilarning ustidan kulardik. Biznesmen, boylarni qahramon deb bilardik. Ammo o'zaro gurunglarda halol tadbirkorga ham panja orasidan qarab, "Bir balosi bo'lmasa, shuncha pulni qayerdan topadi? Topganiga harom aralashgan", derdik. Chunki halol ishlab boyishga ishonch yo'q edi. Shu bois, boylarga havas bilan qarab, ayni damda ularidan nafratlanardik. Bu illat jamiyatning katta qismida ildiz otgan edi. Bugun ko'rib turibmiz: halol ishlab ham boy bo'lish mumkin ekan. Buning uchun tadbirkor bilim olishi, kitob o'qishi kerak ekan. Jamiyatda kimning qanday boyiganini g'iybat qilmay, kitobxonlik, tadbirkorlik haqida fikr almashib yashasa ham bo'larkan. Xo'sh, o'sha "bo'lar ekan-ku" degan fikrga qanday keldik? Albatta,

dars o'tardi. Qoru yomg'irda ham darsni qoldirmay, shuncha masofaga velosipedda qatnardi. Chunki bolalar o'qib dunyoni olib berishiga, bu haqiqat qachondir baribir yuzaga chiqishiga ishonardi. Nazarimda, bu ishonch vatanparvarlikdan quvvat olardi.

O'qituvchilarning haq-huquqi tiklanib, majburiy mehnatdan ozod etilishi mana shu quvvatga yangicha kuch berdi. Muhimi, ziyolida, kitobxonlarga munosabat tubdan o'zgardi. Yangi O'zbekistondagi islohotlarning ilk qadamlari yoshlarni kitobga do'st qilish, mamlakatni kitobxon jamiyatga aylantirishga qaratilgan qat'iy qadamlar bilan boshlandi. Ochiq gap, o'shanda kitob o'qib, qimmatbaho sovg'ani Prezident nomidan olish mumkin ekanini tasavvurimizga sig'dirish qiyin kechgandi. Amaliy sa'y-harakatlar boshlangach, jamiyatda bu tanlovning adolatlari bo'lishiga shubha bilan qaraganlar ham uchrar edi. Ammo eng yaxshi kitobxon yoshlar oddiy oilalarning farzandlari ekanini aniqlanib, ularga mashina sovg'a qilingach, qarashlar butkul o'zgardi. Xalqimiz orasida ushbu tanlov siyosiy imij uchun emas, haqiqatan, jamiyatni ilm-ma'rifatga chorlash, yurtdoshlarimizni kitobga oshno qilish uchun boshlangani haqli ravishda e'tirof etildi.

2017-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi millionlab yoshlarni kitobga yaqinlashtirdi. Ular orasida kim ko'p kitob o'qib, uqanlarini bayon qilib bera oladi degan sog'lom raqobat paydo bo'ldi. "Yosh kitobxon oila" tanlovi esa mutolaa muhitini har bir xonadonga olib kirishga xizmat qilyapti. Bunday oildada dunyoga kelgan go'daklar olamni kitob o'qiyotgan ota-onasining nigohi ila idrok etyapti. Eng katta natija shu, aslida. Lekin oldimizga ulkan maqsadlar qo'yanmiz. Harakatlarimiz, tanlagan yo'limiz ham shunga yarasha bo'lishi kerak. Shu ma'noda, O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha umummilliy harakatga start berilgani mamlakatimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Prezidentimizning "Yoshlar orasida kitobxonlik dasturini keng joriy etish va ularning qiziqishlarini ko'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoyishiga ko'ra, 2026-yildan har yili umumta'lim maktablarida o'qiyotgan yoshlarning kitob o'qishga qiziqishini ko'llab-quvvatlashga qaratilgan milliy kitobxonlik harakati o'tkaziladi. Ushbu dastur har yili 3 bosqichda amalga oshiriladi. Ya'ni 1-bosqich "kitobxonlikharakati.uz" elektron platformasida ro'yxatdan o'tgan holda onlayn, 2- va 3-bosqichlar esa bevosita ishtirok etish formatida viloyat va respublika darajasida uyushtiriladi. Mazkur tanlov 3 ta yosh toifasida bo'ladi. Dasturining umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etadi.

G'oliblar ham shunga munosib tarzda taqdirlanadi. Yuqori sinf (6-8-sinf, 9-11-sinf) toifalari bo'yicha 1-o'rinni egallagan 2 g'olibning har biri 50 ming dollar pul mukofoti va diplom bilan mukofotlanadi. Xuddi shuningdek, 2-o'ringa munosib ko'rilgan bir yil sovrindorning har biri 30 ming dollar pulni ko'lga kiritadi. Uchinchi

o'rinni olgan 2 sovrindorning har biriga 15 ming dollar beriladi. Yana bir muhim fakt: 5 ta qo'shimcha nominatsiya bo'yicha sovrindorlarning har biriga 10 ming dollardan taqdim etiladi.

Yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishga bunday katta sarmoya kiritish hozirgi geosiyosiy jarayondagi iqtisodiy sinovlar davrida oson emas! Xalqaro maydondagi vaziyatni tahlil qilib, uning iqtisodiy oqibatlaridan ozgina xabardor kishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Buni, ayniqsa, yoshlar teleran anglishi, shunga munosib harakatlaniishi kerak. Ular anglatish, to'g'ri tushuntirish esa biz, kattalarning Vatan oldidagi burchimizdir. Chunki mamlakatimiz yetakchisi ushbu dasturni shunchaki kitob o'qish musobaqasi emas, balki Vatanimiz kelajagi uchun strategik investitsiya sifatida qabul qilindi. Ayni o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tish joiz.

Biz tengi avlodning katta qismi maktabning yuqori sinfiga o'tmaguncha mobil telefon nima ekanini bilmasdi. O'sha zamonlarda robot, dunyoni boshqarishga qodir ulkan kompyuter tizimi (biz uni bugun sun'iy intellekt deb ataymiz) aql bovar qilmash holat edi. Uni faqat xorijning fantastik kinolarida ko'rardik. Oradan 30 yildan kam vaqt o'tgan bir pallada afsonalar haqiqatga aylandi. Hozir sun'iy idrok mehnat bozorida

jiddiy e'tibor qaratilayotganining tub mohiyati ham shunda.

Ha, islohotlar aynan mana shu ruhda boshlangan edi. Endi u yangi bosqichda, davr ruhiga munosib tarzda davom ettirilmoqda. Milliy kitobxonlik harakati ana shu yo'ldagi eng katta va muhim qadamlardan bo'ldi. Prezidentimiz aytgani kabi: "Kitob o'qiydigan odam teran va sog'lom fikrlaydi. Bunday tafakkurga ega inson esa jamiyatni o'zgartira oladi".

Sodda qilib aytganda, o'zlikni anglash, Vatanimizga, xalqimizga munosib avlod bo'lish yo'lidagi milliy harakat boshlandi. Unga har birimiz munosib hissa qo'shishimiz kerak. Farzandlarimiz o'qib-o'rganishi uchun sharoit yaratib berishimiz, ozurlariga yo'l ochib, oildada rag'batlantirib turish zarur. Bu mehnat, fidoyilik talab qiladi. Shu bois, bu boradagi hissamiz qanchalik vatanparvar ekanimizni belgilab beradi. Zotan, baxtli yashashimiz yurtsevarligimizga bog'liq. Ayni haqiqat asrlar osha bizgacha yetib kelgan kitoblarda ham o'z aksini topgan. Masalan, "Avesto"da mehnatsevarlik madh etilgan. Shu bilan birga, yolg'onchilardan uzoq yurish tavsiya etiladi. Mazkur omillar orqali farzand tarbiyasi ko'rsatib beriladi. Ha, hayotning hech o'zgarmas qoidalar bor. Ular amal qilish shaxs, jamiyat iqbolini yuksakka ko'taradi. Ana shunday o'zgarmas qoidalar — ustozlarning yuksak obro'siga putur yetkazmaslik, yoshlarning ilm-fanda ilg'or bo'lishi va ma'rifat mayog'ini baland ko'tarishdir!

Shu o'rinda yana bir hayotiy faktni aytib o'tmoqchiman. Bir sinfda 27 o'quvchi o'qiganmiz. Maktabni tugatganimizdan keyingi to'rt yillikda sinfdoshlar orasida faqat uch kishiga oliy ta'limda o'qishni davom ettirish nasib etdi. Qolgan 25 nafarimiz esa ish topishimiz, tirikchilik yo'lini izlashimiz kerak edi. Sinfdoshlarimdan ikki nafari 11 yillik ta'limdan keyin kasb-hunar kollejidagi o'qidi. Ammo o'z yo'nalishida deyarli ishlamadi. Ishlay olmasdi. Chunki ta'limdagi oqsoqliklar sabab ular kadr sifatida talabga javob bermasdi. Bugun ta'limning ushbu yo'nalishi ham tubdan yangilandi. Hozir texnikumlarini o'z kasbining ustasi bo'lgan, nazariya va amaliyotni birgalikda o'zlashtirgan mutaxassislar tamomlamoqda. Muhimi, ularning ish boshlashi uchun ham qator imtiyozlar berilgan.

O'shanda bizning o'qishga qabul qilingan yoki qilinmaganimiz hech kimni qiziqitirgan emas. O'tgan o'n yilda bu yondashuv ham tubdan o'zgardi. Har bir yoshning masalasi uyama-uy yurib o'rganiladigan bo'ldi, ta'limga, kasb-hunarga yo'naltiriladigan tizim yo'lga qo'yildi. Ayni paytda ta'limdagi yangilanishlar sabab maktab o'quvchilari muddatidan oldin talaba bo'lyapti.

Boz ustiga tadbirkor bo'lishni istaydigan yoshlar uchun banklar joriy yil 25 trillion so'm past foizli kredit taklif etyapti. Startap loyihalarini boshlagan bitiruvchilarga esa 100 million dollar mablag' ajratilgan. Muhimi, yirik AT kompaniyalari har yili



paytida ketmon ko'tarib dalaga chiqar, hosil yetilgach "plan" bajarilmaguncha maktabga yaqin yo'lmasadi. Paxta rejasi esa ustma-ust qo'shib borilar, oxir-oqibat sovuq kunlarga fermerlarga majburiyat yuklashini to'xtatardi. Shuning o'ziyoq alohida katta mavzu!

O'qituvchilar yozgi ta'tilda maktabni ta'mirlashda ustalar qatori ishlar yoki ularning mehnati uchun cho'ntadigan haq to'lardi. Ayni jarayon o'quvchi va ustozlar o'rtasida o'ziga xos "oldi-berdi"ni shakllantirgandi. O'qituvchilar tekis ishchi kuchi sifatida ko'rilgani kamdek, maoshi ham oz edi. Ular shunda ham ishlashga rozi bo'lardi. Bu favqulodda fidoyilik emas, majburiyat hosilasi edi. Chunki ular boshqa ish topa olmasdi. Shu bois, yillar davomida maktabda erkak o'qituvchi deyarli qolmadi.

Vaziyat yil sayin yomonlashib boraverdi. Oqibatda jamiyatda ta'limga ishtiyoq so'ndi. Hatto qo'shiqlarga olinadigan klipplarda, kinolarda bir oz bo'shang va no'noq qahramon qo'lida kitob va uni o'qiyverib ko'z nurini yo'qtog'an shaxs sifatida ko'rsatila boshlandi. Kuchli va baxtli qahramonlar esa doim qimmat mashinada yuradigan, biznesi bor po'rim yigitlar bo'lardi. Ana shu tendensiya

ziyolining obro'sini oshirish, kitob o'qigan yoshlar jahonda yetakchi kuchga aylanadi degan hayotiy haqiqatni shakllantirish orqali.

Ayni o'rinda kechagi kunlarimizdan bir hayotiy misol keltirsam. O'quvchilik davrimizdagi fidoyi ustozlardan biri qo'shni mahalladagi maktabda ingliz tilidan dars berardi. Mamasoat domlani uzoqdan ko'rgan kishi birdan tanib olardi. Oriq, qotmadan kelgan domla yilning to'rt faslida ham do'ppisini yechmas va doim qomatini kamonday egib, velosiped tepkisini bosib, olg'a intilardi. Domla o'tish davridayoq zamonidan bir qadam ildamlab, o'quv kursiga asos solgan edi. O'shanda atrofdegilar "Tavba, pul olib dars o'tar ekan. Indamay maktabingda ishlayver" qabiliida gapirardi. Aksariyat odamlar bolasini qo'shimcha darsga qo'yg'anglar haqida ham kinoya aralash: "Puli ko'payib qolgan bo'lsa kerak-da, bolasi o'qib dunyo olib berarmidi?!" derdi.

Bir-ikkisi safar domlarning darsiga qatnaganim uchun yaxshi bilaman: Mamasoat domla darsni erinmay, hijjalab tushuntirar edi. Bilimdonlik va fidoyilik qo'shoq'lab tortiq etilgan domla o'n-o'n ikki chaqirim naridagi chekka qishloq maktabida ham



inson uchun eng birinchi o'rindagi raqobatchi bo'lib qoldi. Ushbu holatni ortiqcha ta'riflash shart emas, nazarimda. Demoqchimizki, mana shunday raqobat davrida mamlakatlar sun'iy intellektdan foydalana oladigan emas, uni boshqarishni biladigan kadrlarga ehtiyoj sezadi. Texnik taraqqiyot yuksalib borgan sari ushbu ehtiyoj ham kuchayaveradi. Shu ma'noda, bugungi yoshlar mehnat bozorida kuchli raqobatchi shay bo'lishi kerak. Unga bardoshli bo'lishning yo'lini ham ajdodlarimiz ko'rsatib ketgan. Ma'rifatparvar bobolarimiz "Ilmdan boshqa najot yo'q", degan. Yangi O'zbekistonda ilm-fanga, ma'rifatga hozir

kamida 50 ming bitiruvchini sun'iy intellekt bo'yicha o'qitib, yuqori daromadli ishga joylashtirishga tayyor ekanini aytdi. Bu davr bilan hamqadamlik, mehnat bozorida raqobatda yetakchilik qilish degani! Shu kabi quvonchli mujdalar fonida har qanday kishi maktabni tamomlagan navqiron avlodga qarab havas qiladi. Ana shu havasni sezgan yigit-qizlar faxr bilan quyidagi misralarni takrorlayotgandek:  
Menga yordir omad, men bilan iqbol,  
Hali yetti iqdim qolar hayron, lol,  
Ey dunyo! Boryapman, meni qarshi ol,  
Shu buyuk millatning umidiman men!

Har yili 5-iyun sanasi dunyoda Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida keng nishonlanadi.

Ushbu sana BMTning 1972-yilda Stokgolm shahrida bo'lib o'tgan Inson atrof-muhiti bo'yicha konferensiyasi qarorlari asosida ta'sis etilgan bo'lib, bugungi kunda global ekologik muammolarga e'tibor qaratishning eng muhim xalqaro platformalaridan biridir.

## 5-iyun – Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni

# HAR BIR INSONNING HAYOTIY MAS'ULIYATI



Avazbek XOLBEKOV,  
Barqaror rivojlanish markazi  
bo'lim boshlig'i

So'nggi o'n yilliklarda insoniyat tarixida misli ko'rmagan ekologik bosimlar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi, cho'llanish, bioxilma-xillik qisqarishi hamda tabiiy resurslarning izchil kamayib borishi nafaqat tabiatga, balki iqtisodiy taraqqiyot, inson salomatligi va global xavfsizlikka ham jiddiy tahdid solmoqda.

Bugun ekologik muammolar alohida bir davlat yoki mintaqa doirasida emas, balki umuminsoniy xavf darajasiga chiqqan. Shu ma'noda, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi endi faqat ekologlar yoki mutaxassislar emas, balki har bir insonning hayoti mas'uliyatiga aylaniy bormoqda.

O'rmonlar Yer sayyorasi ekologik muvozanatining asosiy ustunlaridan biridir. Bugun dunyo quruqlik hududining qariyb 31 foizi o'rmonlar bilan qoplangan bo'lib, aynan shu hududlarda sayyoradagi bioxilma-xillikning 80 foizdan ortig'i jamlangan.

O'rmonlar atmosferadagi uglerodni yutish orqali iqlim o'zgarishini sekinlashtiruvchi eng muhim tabiiy mexanizm vazifasini bajaradi. Tahillarga ko'ra, o'rmonlar Yer atmosferasiga nisbatan ko'proq miqdorda uglerod saqlaydi.

Bugungi kunda dunyoda 1,6 milliarddan ortiq insonning hayoti, daromadi va kundalik turmushi bevosita o'rmon bilan bog'liq. Shuningdek, qariyb 2 milliard kishi, ya'ni Yer shari aholisining to'rtinchi qismi hali ham ovqat tayyorlash va istish uchun yog'och yoqilg'isidan foydalanadi.

O'rmonlar havoni tozalash, suv manbalarini muhofaza qilish, tuproq eroziyasining oldini olish va iqlim muvozanatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ular millionlab tirik organizm uchun tabiiy yashash muhitini ta'minlaydi.

Inson salomatligi ham bevosita tabiiy ekotizimlar holatiga bog'liq. Xususan, yangi yuqumli kasalliklarning 75 foizi tabiiy landshaftlar, ayniqsa, o'rmonlar yo'q qilinishi natijasida yuzaga kelayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda.


Bugun global miqyosda o'rmonlar jiddiy xavflarga duch kelmoqda. Har yili dunyo bo'ylab 10 million gektar o'rmon maydoni yo'qolmoqda. Bu qariyb Koreya Respublikasi hududiga teng degani.

O'rmonlarga bugungi kunda qator jiddiy ekologik va antropogen omillar tahdid solmoqda. Xususan, noqonuniy daraxt kesish, o'rmon yong'inlari, havo va tuproq ifloslanishi, zararkundalilar tarqalishi, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik hamda kuchli bo'ronlar o'rmon ekotizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada bioxilma-xillik qisqarib, tabiiy ekotizimlar muvozanati izdan chiqmoqda. Global harorat oshishi va ekstremal ob-havo hodisalari ko'payishi tabiiy ekotizimlarga bosimini yanada kuchaytirmoqda.

Xalqaro ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda degradatsiyaga uchragan 2 milliard gektardan ortiq yer maydonini qayta tiklash imkoniyati mavjud. O'rmonlarni qayta tiklash nafaqat iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi, balki yangi ish o'rnlari yaratish, tuproq eroziyasining oldini olish, suv havzalarini muhofazalash hamda bioxilma-xillikni saqlab qolishga ham xizmat qiladi.

Global haroratning oshishi natijasida dunyoda qurg'oqchilik, suv tanqisligi, tabiiy ofatlar va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq xavflar kuchaymoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi iqlim o'zgarishi ta'siriga eng sezgir hududlardan biri sifatida baholanoqda.

O'zbekiston uchun ham ekologik barqarorlik masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Orol



Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil may holatiga yurtimizdagi quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan yil boshidan buyon jami 4 milliard kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Shundan 2 milliard 315 million kVt. soat quyosh fotoelektr stansiyalari, 1 milliard 685 million kVt. soat esa shamol elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi.

dengizi fojiasi, suv resurslari taqchilligi, havo ifloslanishi va cho'llanish jarayonlari mamlakatning ekologik xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahillarga ko'ra, mamlakatimizda havo harorati oshishi, suv resurslari hajmi qisqarishi hamda ekologik yuklama kuchayishi qishloq xo'jaligi, aholi salomatligi va iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga moslashish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ekologik muammolarni hal etishda kompleks yondashuv asosida qayta

tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, "yashil" energetika loyihalarini kengaytirish, ko'kalamzorlashtirishni kuchaytirish, chiqindilarni bosqarish tizimini modernizatsiyalash, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda aholining ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Xususan, "yashil" energiya ulushi 30 foizdan oshdi, bunda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish va quvvatlarini kengaytirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari nafaqat energetik xavfsizlikni mustahkamlash, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil may holatiga yurtimizdagi quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan yil boshidan buyon jami 4 milliard kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Shundan 2 milliard 315 million kVt. soat quyosh fotoelektr stansiyalari, 1 milliard 685 million kVt. soat esa shamol elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davridagiga nisbatan 898 million kVt. soat yoki qariyb 29 foiz ko'p demakdir.

Mazkur hajmdagi "yashil" energiya ishlab chiqarilishi natijasida 1 milliard 66 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilindi hamda atmosferaga 2,3 million tonna zararli moddalar chiqarilishining oldi olindi. Bu esa uglerod izini qisqartirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarishda muhim omil bo'lyapti.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan eng yirik ekologik tashabbuslardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Loyiha doirasida respublika bo'ylab keng ko'lami ko'kalamzorlashtirish ishlari bajarilib, shahar va qishloqlarda millionlab tup daraxt va buta ekish izchil davom ettirilmoqda.

Bugunga qadar respublika bo'ylab 981,7 million tup, jami 259 turdagi daraxt va buta ko'chati ekildi. Orolbo'yi hududida saksovolzorlar barpo etish ishlari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Orol dengizining qurigan tubida qariyb 2 million gektar maydonda o'rmonzorlar yaratilgan. Bu esa qum va tuz ko'chishining oldini olish, havo sifati hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga zamin bo'lmoqda.

Ko'kalamzorlashtirish havodagi chang va zararli moddalar miqdorini kamaytirish, shaharlarda mikroiqlimni yaxshilash, havo haroratini pasaytirish, uglerod chiqindilarini yutish hamda cho'llanish jarayonlarini sekinlashtirish kabi muhim ekologik vazifalarni bajaradi. Shu ma'noda, "Yashil makon" umummilliy loyihasi nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki aholining ekologik madaniyatini oshirish va kelajak avlod uchun sog'lom yashash muhitini shakllantirishga xizmat qilayotgan strategik tashabbus sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, havo ifloslanishi va chiqindilar hajmi ortishi kabi global muammolarning ko'p qismi

inson faoliyati natijasida yuzaga kelmoqda. Shu bois, ekologik muammolar yechimi ham insonning munosabati va xulq-atvoridan boshlanadi. Bir qarashda oddiy tuyuladigan sunni tejab ishlatish, elektr energiyasini ortiqcha sarflamaslik, bir martalik plastik mahsulotlardan kamroq foydalanish, chiqindilarni saralash yoki daraxt ekish kabi amaliy harakatlar umumiy hisobda ekologik barqarorlikka katta hissa qo'shadi.

Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 400 million tonnadan ortiq plastik chiqindi hosil bo'ladi va uning katta qismi qayta ishlanmasdan atrof-muhitga tashlanadi. Natijada plastik chiqindilar daryolar, ko'llar va okeanlarni ifloslantirib, minglab hayvonot va o'simlik turlarining yashash muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirish davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda maktablar, oliy ta'lim muassasalari va mahallalarda ekologik ta'limni kuchaytirish, aholi o'rtasida ekologik targ'ibotni kengaytirish, ko'kalamzorlashtirish aksiyalari o'tkazish hamda chiqindilarni saralash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, ekologik ta'limni erata yoshdan boshlanadi. Alohida ahamiyatga ega. Chunki tabiatga ehtiyoorkor munosabat, resurslarni tejash va ekologik mas'uliyat kabi qadriyatlar bolalikdan shakllansa, kelajakda ekologik ong yuqori bo'lgan jamiyatni barpo etish imkoniyati ortadi. Shu nuqtayi nazaridan, ta'lim muassasalarida ekologik bilimlarni kengaytirish, amaliy ekologik loyihalarni ko'paytirish va yoshlarning tabiiy muhofazasiga odd tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish faqat davlat idoralari yoki ekologik tashkilotlarning vazifasi emas. Tabiatni arash har bir insonning kundalik hayot tarzi, shaxsiy mas'uliyati va fuqarolik burchiga aylaniishi lozim. Chunki barqaror kelajak, sog'lom ekologik muhit va kelgusi avlod farovonligi aynan bugun qabul qilinayotgan qarorlar va shakllantirilayotgan ekologik madaniyatga bog'liq. Bu haqiqat Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kunining asosiy g'oyasi va insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan birini anglatadi.

Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni — shunchaki ekologik sana emas. Bu inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash va kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni anglash va barqaror taraqqiyot sari intilish ramzidir.

Tabiat insonga tegishli emas, balki inson tabiatning bir qismidir. Shu bois, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash har bir davlat, har bir jamiyat va har bir insonning umumiy vazifasi hisoblanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi davlatlar oldidagi muhim strategik vazifalardan biriga aylanmoqda. Iqlim o'zgarishi, havo ifloslanishi, suv tanqisligi va bioxilma-xillikning kamayishi kabi muammolar ekologik boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Ekologik ekspertiza institutining o'tgan yillarda shakllangan huquqiy asoslari bugungi globallashuv jarayoni punktlarida yuzaga kelgan ekologik holatlarda yaqqol namoyin bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, ekologik baholash tizimiga zamonaviy xalqaro mexanizmlarni joriy etish ekologik siyosatning asosiy maqsadi etib belgilandi.

Ekologik baholash yangi loyihalar, ishlab chiqarish obyektlari yoki infratuzilma dasturlarining atrof-muhitga ta'sirini oldindan aniqlash va baholash imkonini beradi. Rivojlangan davlatlar tajribasida mazkur tizim ekologik xavflarni kamaytirish, investitsiya loyihalarining shaffofligini ta'minlash hamda qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishda samarali vosita sifatida qo'llanmoqda.

Zamonaviy xalqaro mexanizmlar orasida atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimi alohida

## EKOLOGIK BAHOLASH TIZIMI

### U qay tartibda va nimaga asosan o'tkaziladi?



G'ayrat MUHAMMEDOV,  
Davlat ekologik ekspertizasi  
markazi bosh direktori

o'rin tutadi. Ushbu mexanizm Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya va boshqa qator davlatlarda keng joriy etilgan bo'lib, har qanday loyiha amalga oshirilishidan oldin uning ekologik oqibatlari chuqur tahlil qilinadi. Bu esa tabiatga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan qarorlarning oldini olish imkonini beradi.

Strategik ekologik baholash tizimi ham muhim xalqaro mexanizmdir. U nafaqat alohida loyihalarni, balki davlat dasturlari, hududiy rejalar va iqtisodiy strategiyalar hamda shaharsozlik loyihalarining ekologik ta'sirini baholash imkonini beradi. Bu orqali uzoq muddatli rivojlanishda ekologik barqarorlik ta'minlanadi.

Ekologik baholash tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish ham zamon talabi. Xalqaro amaliyotda geoaxborot tizimlari, sun'iy intellekt va onlayn monitoring platformalaridan keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalar ekologik ma'lumotlarni tezkor yig'ish, tahlil va qaror qabul qilish jarayonini samarali tashkil etishda qo'llaydi.

Xalqaro amaliyotga ko'ra, ekologik baholash institutida aholi fikri ekologik nizolarning oldini olish va qarorlarning ochiqchiligi ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, jamoatchilik ekologik ekspertizasi, jamoatchilik eshituvlari institutlarini rivojlantirish muhim vazifalardan. Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatimizda ekologik ekspertiza o'tkazishning huquqiy asoslari xalqaro talablarga to'liq javob bermasligi sabab 2025-yilda amaldagi "Ekologik ekspertiza



to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonun ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 11-maydagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholashning yangi mexanizmlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qaror loyihasi bilan yangi tahrirda qabul qilingan qonun ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan qator tartiblar, xususan, davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish hamda atrof-muhitga ta'sirni baholash tartiblarini tasdiqlandi. Ushbu jarayonda amalda 4 toifaga bo'lingan ekologik ekspertiza obyektlari bittaga qisqartirilmog'na. Bu, o'z navbatida, atrof-muhitga ta'siri kam minglab kichik biznes vakillarining ekologik ekspertiza jarayoniga tortilmaslik imkoniyatini beradi. Obyektlarning tarmoqlar kesimida berilishi esa huquqni

qo'llash amaliyotidagi chalkashliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Davlat ekologik ekspertizasini yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirish tartibining belgilanishi davlat ekologik ekspertiza sohasining shaffofligini ta'minlaydi. Shuningdek, ekologik ekspertiza subyektlarining huquq va majburiyatlari, ekologik xulosalar bo'yicha muammoli masalalarni kollegial hal etish institutlari, atrof-muhitga ta'sirni baholash materiallari va ekologik normativlarni ishlab chiqishda xalqaro hujjatlar, xususan, Parij kelishuvi, Bazel, Bioxilma-xillik konvensiyalari doirasida olingan majburiyatlar ijrosiga yo'naltirilgan huquqiy asoslar joriy etilmog'na.

Jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish hamda jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirish tartiblari ishlab chiqilgani

ekologik qarorlar qabul qilishda demokratik qadriyatga ustunlik beradigan muhim hujjat sifatida e'tirof etiladi. Mazkur hujjatlar Orxus konvensiyasi doirasida olingan majburiyatlar ijrosini ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Shuningdek, loyihachilar faoliyatini tashkil etish va ularning reytingini yuritish hamda malaka sertifikatini berish tartiblarini, loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlarning faoliyatini tashkil etish, ularning ish samaradorligini va ishlab chiqiladigan hujjatlar sifatini baholash maqsadida ularning reytingini yuritish, shuningdek, loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarga qo'yilgan talablar, ularga malaka sertifikatini berish tartibi belgilanmoqda.

Ekologik baholash tizimida strategik ekologik baholash xalqaro amaliyotning ustuvor tadbirlaridan. Strategik ekologik baholash bo'yicha ekologik ma'ruzani tayyorlash va uning sifatini baholash tartibi, o'z navbatida, davlat dasturlari, konsepsiyalari va shaharsozlik hujjatlari kabi strategik hujjatlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat ekologik ekspertizasi organlari tomonidan birgina 2025-yilda 49 ming 620 ta ekologik ekspertiza xulosasi berilgan. Shundan 700 ga yaqin loyiha ekologik talablarga javob bermagani aniqlandi. Qaror bilan loyihachilarga nisbatan malaka sertifikatini joriy etish va loyiha tashkilotlari reytingini shakllantirishning huquqiy asoslari belgilanayotgani, o'z navbatida, ular tomonidan ekologik talablarga javob bermaydigan loyiha hujjatlari tayyorlashning oldini olishda juda muhim.

Yangi qaror bilan ekologik baholash tizimiga zamonaviy xalqaro mexanizmlarni joriy etish atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat tabiatni arash, balki kelajak avlod uchun sog'lom va xavfsiz muhit yaratishda ham muhim omil bo'ladi.

Osmon. Shu birgina so'z ortida ne-ne sir-sinoatlar, uning o'zi singari sarhadis savollar, kechalari ko'kka terilib yulduz sanab yotgan bola nigohidagi cheksiz hayrat, bepoyon kengliklar qadar qanotlab uchgan ajoyib orzular mujassam. Bu moviy gumbazning tillakor naqshlari – sitoralar-u tunning qulog'iga taqilgan zirak – oybaldoqqa qarab ahli bashar necha zamonlar osha qiziqish va orziqish bilan uni o'rganish, tadqiq qilishga intilib kelgan. Ayni davrga kelib esa mazkur sohaning taraqqiyot sur'atiga monand ravishda undan turli soha va tarmoqlar rivoji yo'lida foydalanish imkoniyati ham tobora kengayib borayotir.



## Koinot sari

# KO'KKA BOQIB ULG'AYGAN

Bugungi dunyo taraqqiyot tendensiyasida iqtisodiy qudrat, avvalo, intellektual salohiyat va texnologiyalar bilan o'lchanmoqda. Kosmik texnologiyalar esa allaqachon bu borada strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biriga aylangan. Mamlakatimizda ham kosmik ma'lumotlardan foydalanish boshlanganiga ko'p bo'lmas-da, qisqa muddatda sezilarli amaliy natijalarga erishildi. Davlat kosmik monitoringi ishga tushirilib, ushbu tizim proaktiv ishlanmoqda. Shu bilan birga, so'nggi besh yilda masofadan zondlash ma'lumotlariga talab 3 barobar oshgan. Hozir kosmik monitoring bilan 10 dan ziyod davlat idoralari va barcha hokimliklar hamkorlikda ishlayotir.

Joriy yil 16-fevral kuni Prezidentimiz kosmosga sun'iy yo'lidosh uchirish hamda birinchi o'zbek fazogirini tayyorlash bo'yicha dastlabki ishlar taqdimoti bilan tanishar ekan, shu xususida so'z yuritib, "Eng muhimi, kosmik ma'lumotlar orqali biz "ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan" iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlab, ularni real daromad manbaiga aylantiraymiz. Bu davlat resurslarini boshqarish mexanizmi va madaniyati o'zgarayotganidan dalolat", degan edi. Boisi, kosmik sohada uzoq muddatli va barqaror milliy tizim — sun'iy yo'lidoshlar boshqarish, ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni amaliyotda foydalanish infratuzilmasini shakllantirish g'oyat muhim vazifa. Bunday maqsad mamlakatimizning suveren va obyektiv ma'lumotlar manbaiga ega bo'lishidir.

Hozirgacha xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, bo'lajak sun'iy yo'lidoshning aniqligi va foydali yuklamasiga doir texnik talablar aniqlangan. Birinchi milliy ilmiy sun'iy yo'lidoshni yaratish loyihasi doirasida mutaxassislar tayyorlash va muhandislik jamosini shakllantirish, 2028-yilda "Mirzo Ulug'bek" nomli 6U formatdagi ilmiy sun'iy yo'lidoshni yaratish maqsad qilingan.

Keyingi yillarda sohada jadal o'zgarish va transformatsiya jarayoni olib borilayotir. Xususan, o'tgan yildan e'tiboran mamlakatimizda kosmik faoliyatni rivojlantirish yo'nalishida muhim huquqiy va institutsional hujjatlar qabul qilindi. "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi qonun hamda davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-sentabrdagi "Iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish va qishloq xo'jaligi quyi bo'g'ida boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni shular jumlasidan. "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi qonunda sohada strategik yo'nalishlar hamda davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlaridagi qonunchilik buzilishi holatlarini kosmik suratlarga ishlash berish orqali aniqlashga ko'maklashish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri ekan nazarda tutilgan.

Prezidentimiz farmoni esa kosmik texnologiyalarni bevosita iqtisodiyot tarmoqlariga tatbiq etishga qaratilgan strategik hujjatdir. Unda aerokosmik ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligida boshqaruv tizimini takomillashtirish

asosiy yo'nalish sifatida belgilangan. Unga muvofiq, yer resurslari holatini sun'iy yo'lidosh orqali monitoring qilish, hosildorlikni tahlil etish, ekologik xavflarni erta aniqlash hamda qishloq xo'jaligi jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu esa sohada samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

### Monitoring afzalliklari

Kosmik texnologiyalar atrof-muhit muhofazasi, qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslardan samarali foydalanishda juda muhim. "O'zbekkosmos" agentligi tomonidan joriy etilayotgan zamonaviy kosmik monitoring tizimlari orqali ekologiya, geologiya, qishloq



kosmik yo'nalishga bag'ishlangan dasturlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar doirasida maktab o'quvchilari Turkiyaning Izmir shahriga kosmos va aviatsiyaga ixtisoslashgan markazlarga yuborildi. "3th Space Camp" dasturida shu yilga qadar 30 dan ziyod iqtidorli o'zbek o'g'il-qizlari ishtirok etdi. Talabalar va yosh mutaxassislar o'rtasida milliy "CanSat" mini sun'iy yo'lidosh musobaqasi o'tkazilib, yoshlar 3 oy davomida onlayn o'qitildi. 400 dan ortiq ishtirokchidan final bosqichida 9 ta jamoa.

120 ga yaqin ishtirokchi qatnashdi hamda g'oliblar xalqaro "ICESCO CanSat International" tanlovida ishtirok etish uchun yuborildi. E'tiborlisi, ular 54 davlat qatnashchilari orasida yetakchi 5 talikka kirishga muvaffaq bo'ldi.

# XALQNING RUHI HAM BALAND

xo'jaligi, yer munosabatlari, suv xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi kabi sohalarda samarali loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, qishloq xo'jaligi yerlarida hosil yig'ib olingandan keyingi qoldiqlarni yoqish holatlarini aniqlash bo'yicha sun'iy yo'lidosh ma'lumotlariga asoslangan monitoring tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim yong'inlarni uzluksiz kuzatish, tezkor aniqlash va tegishli tashkilotlarga ma'lumot uzatish imkonini bermoqda. So'z isboti bilan deganlaridek, shu o'rinda birgina misol keltirmoqchimiz. 2024-yilda respublika miqyosida bug'doy o'rimidan keyin 2200 ta dala yong'ini qayd etilgan bo'lsa, 2025-yilda ularning atigi 130 tasida shunday holat qayta kuzatilgan. Ya'ni mazkur loyiha orqali takroriy yoqish holatlari 94 foiz kamaydi.

Shuningdek, daraxt kesilishini nazorat qilish bo'yicha maxsus platforma yo'lga qo'yildi. Mazkur tizim shahar va aholi yashash hududlaridagi yashil maydonlarni

kunlik monitoring qilish imkonini beradi. Kosmik tasvirlar yordamida yashil hududlar raqamlashtirilib, daraxtlar kesilishi yoki yashil maydonlar qisqarishi holatlari tezkor aniqlanadi. Bu esa noqonuniy daraxt kesilishiga qarshi kurashish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil hududlarni saqlab qolishda samara beryapti.

Suv resurslarini barqaror boshqarish yo'nalishida ham ilg'or yechimlar joriy qilinmoqda. Kosmik monitoring asosida har bir qishloq xo'jaligi maydonining haqiqiy suv iste'molini aniqlash, "virtual suv o'lchagich" tizimini shakllantirish va sug'orish me'yorlarini optimallashtirish imkoniyati yaratilmoqda. Shu orqali suv tejankorlikni oshirish, qishloq xo'jaligi samaradorligini kuchaytirish va hosildorlikni prognoz qilishga erishilmoqda. Bunday innovatsion yondashuvlar yurtimizda raqamli texnologiyalar va kosmik sohani rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi dadil olg'a siljishdan darak.



### Xalqaro hamkorlik

2025-yil O'zbekiston kosmik sohasi uchun tarixiy yil sifatida qayd etildi. Aynan shu yilda "O'zbekkosmos" agentligi tashabbusi bilan mamlakatimiz "Xalqaro astronomika kongressi — IAC 2028" mezbonligini qo'lga kiritdi. Bu mamlakatimizning xalqaro imji nuqtayi nazaridan ham yilning eng muhim voqealaridan. 2028-yilda ushbu nufuzli kongress Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Tarixiy meros va zamonaviy infratuzilma uyg'unlashgan mazkur shahar global kosmik hamjamiyat uchun muhim uchrashuv nuqtasiga aylanadi.

Shuningdek, Xitoy milliy aerokosmik administratsiyasi (CNSA), Koreya aerokosmik administratsiyasi (KASA) va "Star.Vision" (Xitoy) kompaniyasi bilan anglashuv memorandumlari imzolandi. Kosmik ta'lim yo'nalishida Xitoy Fanlar akademiyasi huzuridagi Aerokosmik axborot tadqiqot instituti, Kyushu texnologiya instituti (Yaponiya), Turin politexnika universiteti (Italiya), Tokio universiteti (Yaponiya) bilan hamkorlik o'rnatilgan.

### Kosmik ta'lim yo'nalishi

Yoshlarni kosmik soha va innovatsion texnologiyalarga jalb etishning ahamiyati haqida o'tirchga gapirib o'tirishga zarurat yo'q. Xususan, ayni maqsad yo'lida "O'zbekkosmos" agentligi tomonidan qator loyihalar amalga oshirilayotgani bejiz emas. Misol tariqasida robototexnika, astronomiya va kichik sun'iy yo'lidoshlarga ixtisoslashtirilgan "Cosmic Camp" yozgi kosmik oromgohi tashkil etilib, unda 300 nafar yoshning qamrab olinganini qayd etish mumkin. Ular agentlik tomonidan ishlab chiqilgan 3-5-7 kunlik

Kosmik faoliyatga qiziqishni oshirish maqsadida xalqaro kosmik haftalik doirasida "Nasa Space Apps Challenge" xakaton, "Unisat 3.0" loyihasi hamda "Space Fest" tadbirlari tashkil etilib, 2000 dan ziyod yosh ushbu tadbirlarda ishtirok etdi. Talabalar va yosh olimlar o'rtasida innovatsion g'oyalarni rivojlantirish maqsadida o'tgan yil "Yosh muhandis" tanlovi Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilib, 500 ishtirokchi va 80 ta jamoa qatnashdi. 9 jamoa esa sovrinli o'rinni egalladi.

2026-yilda tanlov respublikamizning 5 ta viloyatida o'tkazildi. Hududlarda iqtidorli yoshlarning loyihalarini taqdim qilishi uchun maydon yaratilib, unda 1600 dan ziyod loyiha taqdim etildi. Toshkent shahrida o'tgan tanlovdan final bosqichida 250 ishtirokchi o'z ishlarni final bosqichida taqdim etish uchun ishlab chiqilgan final bosqichida, ulardan kosmik eng ilg'or jamoa Turkiyada joylashgan kosmik lagerga yo'llanma yutib oldi.

### O'zimizning birinchi fazogir va ilk sun'iy yo'lidosh

Davlatimiz rahbari huzurida o'tgan taqdimot doirasida birinchi o'zbek fazogirini tayyorlash masalasi ilgari surildi. Dastlabki takliflarga ko'ra, 10-14 kunlik parvozga tayyorgarlik ko'rish rejalashtirilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlik istiqbollari, jumladan, yetakchi kosmik agentliklari bilan hamkorlik formatlari ko'rib chiqilayapti.

Kosmonavtni fazoga uchirish aniq ilmiy dasturni amalga oshirish bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston kosmonavti fazoda bo'lishi doirasida o'tkazilishi mumkin bo'lgan tadqiqotlar yo'nalishi sifatida tabiiyot va biologiya (masofaviy tashxis qo'yish, mahalliy dorivor ekstraktlar samaradorligini o'rganish),

Insoniyat tarixiga sinchiklab nazar solinsa, har qanday yuksalish pillapoyasining maqaddimiyasida insoniyatning osmon qadar chegarasiz, sarhadis va poyonsiz tasavvur olami turishi, barcha ixtiroyvo olamshumul yutuqlar uning hosilasi ekanini anglash qiyin emes. Kecha etakdek tuyulgan hodisalar bugun kundalik hayotimizning bir bo'lakiga aylanib ulgurani ham odamzodga in'om etilgan ana shu qutlug' ne'matning eng buyuk mo'jizalaridan. Alalussus, bir paytlar muammajilar nigohi qadalgan olis samoga endi ilm-fan, tafakkur va texnologik taraqqiyot samarasida insoniyat qadami yetgan. Ular orasidan O'zbekiston degan qadim yurtning fuqarosi, navqiron avlodi ham o'rinni oladigan kunlar yaqin.

Ko'kka boqib ulg'aygan xalqning ruhi hamisha baland bo'ladi. Chunki osmon kenglik demak. Unda o'zod qushlar kabi keng qanot yozib parvoz etish, yuksaklardan turib lochin kabi o'tkir nigoh bilan butun manzarani aniq ilg'ash mumkin. Shunday qilib, bunday dunyoqarash insonni tor fikrlashdan qutqaradi. Unda olijanoblik, kenglik tuyg'usini paydo qiladi. Ya'ni yulduzlar sari yo'l olgan tafakkur mayda manfaatlar girdobida qolib ketmaydi.

Mirzo Ulug'bek yulduzlarni kuzatgan zamindan bugun yangi avlodning fazoga qarab dadil odimlayotgani o'zida chuqur ramziy ma'no tashiyotgandek go'yo. Asriy silsila, qondan qonga, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan mana shu ma'rifat yug'dusi ko'nglimiz osmonini bamsli oftoab kabi mangu yoritib tursa ne tong! Eng muhimi, tafakkur uyg'oq, ilimga chanoqlik so'nmas ekan, moviy kenglik hamisha insoniyatni o'ziga chorlayveradi. Ana shunday intilish bor ekan, Vatan, xalq hamisha yuksaklik sari harakatda bo'laveradi.

Asliddin ABDURAZZOQOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Ibrat

Respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan "Eng faol ijtimoiy xodim" tanlovi sohada fidokorona mehnat qilayotgan mutaxassislarni munosib e'tirof etish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda jamiyat e'tiborini inson qadrlini ta'minlash masalalariga qaratishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tanlov g'oliblari nafaqat o'z kasbining yetuk vakillari, balki mehr, mas'uliyat va sadoqat timsoli sifatida ham e'tirof etiladi.

Bu yil ham "Eng faol ijtimoiy xodim" tanlovi ana shunday ezgu fazilatlarini o'zida mujassam etgan soha vakillarini aniqlashga xizmat qildi. Tanlov jarayonida ishtirokchilarning amaliy ishlari, aholi bilan ishlash samaradorligi, tashabbuskorligi va muammolarni hal etishdagi yondashuviga alohida e'tibor qaratildi. G'oliblar nafaqat yuqori natijalari, balki inson taqdiriga befarq bo'lmagan bilan ham ajralib turdi. Hududiy saralash bosqichida g'olib bo'lgan 14 ishtirokchi ko'rik-tanlovning respublika bosqichida test, suhbat va KPI ko'rsatkichlari asosida baholandi. Eng yuqori ball jamlangan ishtirokchi birinchi o'rinni egalladi. 5 nafar ishtirokchi esa nominatsiyalar asosida sovrindor deb topildi.

Xo'sh, ular qanday ishlari bilan ajralib turdi? Asosan qaysi tashabbuslari e'tibor qozondi? Oddiy odamlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

### Faol bo'lish uchun qanday ishlash lozim?

— 2024-yildan ijtimoiy xodim lavozimida ishlash kelyapman. Bu vazifa menga, avvalo, sharafli, mashaqqatli, shu bilan birga savobli yo'lida ekanimni anglatdi. Faoliyatim davomida og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolar bilan ishlayman. Ularning muammolari, qiziqishlari va intilishlaridan kelib chiqib, jamiyatda o'z o'rini topishiga ko'maklashaman, — deydi 1-o'rin sohibi jizxalik Nafisa Po'latova. — Mahallamizdagi Saidabonu zaif eshituvchilar maxsus maktab-internatining 1-sinfiga borar edi. Otasi 3 yil oldin vafot etgan, onasi tikuvchilik bilan shug'ullanadi, oilada undan tashqari yana 3 farzand bor. Saidabonu bilan onasining yordamida suhbatlashganimda u ham sog'lom bolalar kabi har kuni oila davrasida bo'lishni xohlashini aytdi. Internatda yotib qolish, dam olish kunlaridagina uyga borishdan bezib qolgan ekan. Shundan so'ng onasiga maktablarda inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yilgani haqida gapirib, Saidabonuni yashash hududiga yaqin, aka-opalari ta'lim olayotgan maktabdagi inklyuziv ta'limga jalb qildim. Unga eshitish moslamasi berildi. Endi u maktabga o'zi xohlab boryapti, eshitish qobiliyati ham tiklanmoqda. "Mahalla yetiligi" bilan birga bu oilaning turmush darajasini yaxshilashga ham erishdik. Onasiga subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. Katta farzandlari ham fan va sport to'garaklariga jalb qilindi. Saidabonuni esa qiziqishiga ko'ra, raqs to'garagiga yo'naltirdik. Nafisa Po'latovanning yutug'i shundaki, u chindan ham boshqalardan ko'proq mehnat



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



### Ayollar huquqlari himoyachisi

— Bir oilaga borganimda ona va qizi juda tushkun ahvolda edi, — deydi samarqandli ijtimoiy xodim, "Ayollar huquqlari himoyachisi" yo'nalishi g'olibi Lobarxon Shaptakova. — Qizga nisbatan o'gay otasi zo'ravonlik qilgan. Birinchi navbatda, zo'ravonni bu oilaga yaqinlashtirmaslikka kirishdim. Bu ishga "mahalla yetiligi"dan profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, qolaversa, ko'chaboshilar, nuroniylarni jalb etdim. Qo'shnilarni ham chaqirdik. Qizga himoya orderi berildi.

### Bola nazoratsiz qolmasin

Mahallasida 1170 oila mavjud bo'lgan navoiylik ijtimoiy xodim Oysha Karimova "Eng yaxshi bolalar himoyachisi" deb topildi. U ijtimoiy reyestrda turadigan 105 oila bilan ishlaydi. Turli mavzudagi murojaatlar, xonadonlarni o'rganish uchun individual ishlashdan tashqari ijtimoiy reyestrda qolgan,

## MEHR VA MURUVVAT ELCHILARI

vasiylik va homiylikka olingan bolalar bilan ham shug'ullanishi kerak. Bundan tashqari, haftada 3 marta nogironligi bo'lgan fuqarolarning farzandlariga ingliz tilidan dars berib kelyapti. Undan faoliyatidagi eng ta'sirli voqealar haqida so'raganimizda 17 yil davomida qadsizlangan qizning huquqini tiklash yo'lidagi harakatini alohida esga oldi.

Qiz 17 yoshiga qadar ta'limdan to'liq chetda qolgan, shaxsini tasdiqlovchi birona hujjati yo'q. Eng achinarlisi, otasi-ham uni farzand sifatida qabul qilmagan. Shuning uchun qiz buvisining qo'lida vasiylik yoki homiylik belgilanmagan holda yashab kelgan. Yana bir holatda otasi-ham 6 yoshli qizi va 8 oylik chaqaloqni og'ir sharoitda, yashash imkoniyati mavjud bo'lmagan joyga tashlab ketgan. Bolada ruhiy emosional holat kuchli ekan aniqlangan. U bilan 7 oy davomida ishlash, vasiylik belgilangan. Psixologik xizmat ko'rsatilgach, maktabga tayyorlov guruhiga jalb qilingan.

— Mana shunday voqealar sabab asosiy e'tiborni bolalar bilan ishlashga qaratganman, — deydi fidoyi xodim. — Chunki qarovsiz, nazoratsiz qoldirib ketilgan bola alamzada bo'lib o'sadi. Imkon qadar nazoratsiz, ruhi ko'kkan bolajonlarning ijtimoiylashuviga va shaxs sifatida e'tirof etilishiga sababchi bo'layotganidman xursandman. Mahallalarda ijtimoiy xodim uchun shtat birligi ajratilib, ularga qanchadan qancha ma'blag' yo'naltirilayotganining o'zi inson qadrlini ulug'lash, aslida.

Qahramonlarimizning har biri e'tirofqa, e'tiborga munosib. Biz ularning hammasi haqida bir maqolada hikoya qila olmadik. Biroq birgina faol, fidoyi xodimning yutug'i ham boshqalarni harakatga keltirishi, barchaga ilhom manbai bo'lishi mumkin.

Mujojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz.uz\_news

yuz.uz\_news

Surur

# QISHLOQDAGI OBODLIKDAN KO'NGIL CHAROG'ON

Xolmurod SALIMOV,  
jurnalista

**Toshkentdan Navoiy viloyatining Xatirchi tumani sari borar ekanmiz, avtoulav oynasidan ulkan bunyodkorlik, obodonchilik ishlari-yo'g'zal manzaralarga ko'zim tushib, qalbm faxr-iftixorga to'ladi, o'zimni yengil his qilaman. Shunday kayfiyat bilan qishlog'imiz Islomobodga — o'zim tug'ilib o'sgan xonadonga kirib borganimizda shom tushib qolgan. Uydagilar bilan salam-alikdan so'ng dasturxoq yozilib, kechki ovqat tortildi. Ertasi kuni saharida shirchoy va dong'i ketgan Xatirchi patiri bilan nonushta qildik.**



Ancha yildan buyon qishlog'imga buncha muddatga bormagan edim. Odatga ko'ra, avval ta'ziyalik xonadonlarga kirdik, qarindoshlarni yo'qlab, to'y-ma'rakalarda ishtirok etdik. Bu jarayonlar qadrdon qishloqdoshlarim bilan dildan muloqot qilish, ularning kayfiyati va ruhiyatini yaqindan bilish imkoniyatidir.

...Qishlog'imizning eng yoshi ulug' odami Ziyod boboni esimni taniganimdan buyon bilaman. Yoshi 90 dan oshgan bo'lsa-da, bardam va baquvvat. Otaxonni suhbatga tortaman.

— Ochig'i, shuncha yil yashab, bunday dorilamon kunlarni ko'rmagan edik, — deydi Ziyod bobo Xolmo'minov. — Zamon shu qadar tez rivojlanib, aholiga katta qulayliklar yaratadigan bunday o'zgarishlar bo'lishini tasavvur ham qilmaganmiz. Balandparvoz gap emas, chindan ham Islomobodimiz obod bo'ldi. Yaratilgan imkoniyatlarni, ulardan bahramand bo'layotgan farzandlarim, nevara-chevaralarimning baxtu kamolini ko'rib quvonaman. Bu menga yanada tetiklik bag'ishlaydi, yoshargandek bo'laman. Albatta, bu ne'matlar, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va farovonlik o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Hozirgi tahlikali zamonda osoyishtaliki ta'minlash, qariyb 40 millionga yaqinlashayotgan yurtdoshimizni rozi qilish osan emas. Shu ma'noda, islohotlar o'z samarasini berayotganidan, o'zgarish va yangilanishlar chekka hududlarda, jumladan, qishlog'imizda ham bo'y ko'rsatayotganidan suyunaman.

Ancha vaqt davom etgan muloqotda Ziyod bobo qishlog'imizning paydo bo'lish tarixidan tortib, bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari haqida so'zlab berdi. U avvallari bu yerda hamma bir-birini yaxshi taniganini, yiliga bir marta sumalak tayyorlanganini, Navro'z kabi turli bayram tabdirlarida butun qishlog' ahlilari jam bo'lib ishtirok etganini esga oldi. O'zim dunyoga kelib voyaga yetgan manzil-makonning o'tmishiga doir bu kabi tarixiy jarayonlardan yanada ko'proq xabardor bo'lish men uchun juda qiziq.

Islomobodning bundan o'n yil oldingi holatini o'sha davrda bu yerdagi odamlarning yashash tarzi qanday bo'lganini yaxshi bilaman. U paytlardagi holat bilan hozirgi ko'rinishi o'rtasidagi farq yer bilan osmoncha. Odamlarning turmushi va dunyog'arashi ham avvalgidan tubdan farq qiladi. 2015-yillarda qishlog'da qariyb 500 oila istiqomat qilgan bo'lsa, bugungacha kelib 600 dan oshgan.

Ilgari qishlog'da bolalar ta'lim-tarbiyasi, yoshi oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, ichki yo'llar ta'miri, aholi bandligi, ichimlik suv, tabiiy gaz hamda elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha yechimi katta mablag'

va mashaqqatli mehnat talab qiladigan qator jiddiy muammolar yuzaga kelgan edi.

Mamlakatimizdagi keng ko'lamlilik islohotlar yillar davomida yig'ilib qolgan kamchiliklarni birin-ketin bartaraf etish imkonini berdi.

— Yaqin yillargacha Islomobodda birorta ham bolalar bog'chasi yo'q edi, hozir esa yettita ishlab turibdi, — deydi qishloqdoshimiz Ijobat Normamatova. — O'z farzandlarimdan qiyoslayman: bog'chaga borgan, kichik bo'lsa-da, jamoani ko'rgan



kichikintoylar baribir boshqacha bo'larkan — ularning aqliy rivojlanishi har tomonlama yaxshi kechadi. Qolaversa, bu biz kabi uy bekalarining ishlashi uchun ham sharoit yaratadi. Shukrki, bugun shunday imkoniyatga egamiz. Bundan foydalanib, uyimizga yaqin tibbiyot muassasasida ishlayotganimdan, shu orqali jamiyatimiz ravnaqiga va oilamiz farovonligiga hissa qo'shayotganimdan mamnunman.

Ijobat kabi qishloqdosh opa-singillar, aka-ukalar, otaxonu onaxonlar bilan muloqotda bo'lar ekanman, ularning bugungi kunidan va o'z hayotidan rozi ekanini chindan ham his qildim.

— Men tengilarning qariyb barchasi 5-8 nafardan farzand ko'rgan (u paytlari shunday edi) va ularning hammasi ketma-ket voyaga yetdi, — deydi yoshi yetmishdan oshgan qishlog' oqsog'oli Pardaboy O'ralov. — Shular qatorida mening ham to'rt o'g'il va ikki qizim ulg'aydi. To'g'risti, bundan o'n yillar oldin katta hayotga qadam qo'yg'an ko'p sonli yoshlarimizni kasb-hunarga yo'naltirish yoki oliy o'quv yurtida o'qitish, ish bilan ta'minlash



hamda uy-joyli qilish masalalari ko'pchilik singari meni ham jiddiy o'yg'a toldirardi. Bu holat, ya'ni soha va tarmoqlarda paydo bo'lgan qator kamchiliklar katta muammolarni yuzaga keltirgandi.

Shunday pallada Prezidentimiz rahbarligida yurtimizda katta islohotlarga kirishildi. Natijada biz kabi qishlog' odamlarining hayotiga, ertangi kunga ishonchi oshib bordi. Yigit-qizlarimiz uchun keng imkoniyat va imtiyozlar yaratildi. Bugun yoshlar hunarli, ish bilan band, oila qurib, o'z kichik vataniga ega bo'ldi. Ular hayotda o'z o'rnini topib bormoqda deyincha asoslarimiz bor. Qishlog'imizda qurilgan yuzga yaqin namunaviy uyga yosh oilalar ko'chib kirdi.

Navqiron avlodning xalqaro maydonda erishayotgan yutuqlarini o'zingiz ham ko'rib turibsiz. Odamni suyuntiradigan bu kabi ishlar zamirida kelajakni oldindan ko'ra biluvchi, el-u yurt tinchligi uchun jonini berishga-da tayyor bo'lganlarning ulkan sa'y-harakatlari yo'tibdi.

Qishlog'imizdagi yangidan barpo etilgan 27-maktab bugun o'z bag'riga 500 ga yaqin o'quvchilarni olgan. Barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan ushbu ta'lim dargohida qariyb 10 ming kitob fondiga ega kutubxonaga mavjud bo'lib, mazkur ziyofa maskani imkoniyatlaridan qishlog' ahlilari ham keng foydalanmoqda.



Muassasada ta'lim sifati va samaradorligiga e'tibor kuchaytirilgan, oliy va yuqori toifali o'qituvchilar safi kengaymoqda. Bu ishlar o'z samarasini berib, maktabni 2022-2025-yillarda bitirgan 50 ga yaqin yigit-qiz mamlakatimiz va chet el oliy o'quv yurtlari talabalariga safiga qo'shildi. Maktabda bo'lib, o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishi, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt bo'yicha bilim hamda malakalarini oshirishi, shuningdek, turli sport turlari bilan shug'ullanishi uchun keng sharoitlar yaratilganiga bevosita guvoh bo'ldim.

Mahalla raisi Salohiddin O'rtiqovning ta'kidlashicha, uch yil avval qishlog' toza ichimlik suv bilan to'liq ta'minlangan edi. Bugun esa qariyb 12 ming metr uzunlikda quvur tortilishi natijasida har bir xonadonga talab darajasidagi obiyahot kirib bordi.

Elektr energiyasi va tabiiy gaz ta'minoti bo'yicha ham shunday iliq fikrlarni aytish mumkin. Kichik gaz taqsimlash punktlari optimallashtirilib, zamonaviy tizimga o'tkazilgan resurs yo'qotishlarining oldini olmoqda va aholiga qishda ham me'yorida

gaz yetkazib berish imkonini yaratmoqda. Bu yerdagi maktab va bir qancha xonadonlarda quyosh batareyalaridan foydalanilayotgani, yaroqlilik muddati o'tgan simyog'och va transformatorlar yangilanayotgani ushbu yo'nalishdagi muammolarga samarali yechim bo'lmoqda.

Bugungi kunda internetsiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamon bilan hamnafas Islomobod qishlog'ida ham tezkor va sifatli internet kirib bormagan xonadon deyarli yo'q hisobi.

U yoki bu sabab bilan qishlog' bo'ylab men kirmagan ko'cha qolmadi desam ham bo'ladi. Rosti, keyingi 10-yil ichida bu yerda ro'y bergan o'zgarish va yangilanishlarni ko'rib yurak yashmaydi. Bolaligimizda qishda yurib bo'lmaydigan loy va ko'lmakka, yozda esa chang-tuproqqa aylanadigan ichki yo'llarning qariyb 90 foizi asfaltlanganidan xursand bo'lmaslikning iloji yo'q. Ilgarilari kechasi yurishga odam sekanadigan bu manzillarga chiroqlar o'rnatilgani nafaqat hududni charog'on qilmoqda, balki ko'ngillarni ham ravshanlashtirmoqda.

Tegishli dastur asosida qishlog' chetidan o'tgan zovur betonlashtirilib, unga tutash joylarning gulzorga aylantirilgani tahsinga loyiq. Umuman olganda, tozalik va ozodalikka, go'zallikka intilish kuchaygani, odamlarda o'z xonadoni atrofi va ko'cha bo'yilariga mevali hamda manzarali daraxtlar, turfa gullar ekishga, bir so'z bilan aytganda, yashil hududlarni kengaytirishga bo'lgan ishtiyoq oshib borayotgani e'tiborga molik.

Bir paytlar faqat qishlog'imiz qoq o'rtasidan o'tib, Navoiy shahriga eltuvchi asosiy yo'lga asfaltlangan edi. Ammo uning torligi va piyodalarni uchun maxsus yo'laklar yo'qligi sababli ko'plab noqulayliklarga duch kelardik. Keyingi yillarda mazkur yo'l kengaytirilib, uning ikki chetiga maxsus belgi va chiroqlar o'rnatildi, shuningdek, yo'l harakati tartibga solindi.

Qishloqdan tuman markazi va Navoiy shahriga eltuvchi mazkur asosiy yo'l, shuningdek, ichki ko'chalarning talab darajasiga kelirilgani bu yerda tadbirkorlikning barcha turlari keng rivojlanishiga kuchli turki berdi. O'n yilcha oldin Islomobodda birorta ham maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi, sartaorxonaxona yoki novvoyxonaga bo'lmagan. Esimda, uy-ro'zg'or uchun zarur mahsulotlarni xarid qilish maqsadida ko'pchilik qatori tuman markaziga borib kelar edik. Hozir esa o'ndan ortiq savdo do'koni, bir nechta avto servis va avtomobil yuvish shoxobchalari, taksi xizmati, eshik-rom va turli mahsulotlar ishlab chiqarish ustaxonalari, ikkita sartaorxonaxona, novvoyxonaxona hamda bitta umumiy ovqatlanish maskani ishlabmoqda. Buning natijasida ko'plab mahalliy aholi vakillari doimiy ish o'rni va barqaror daromadga ega bo'ldi.

— 2016-yillarda qishlog'imizda bor-yo'g'i 2 ta xonadonda issiqxonaga bo'lardi, — deydi hamqishlog'im Shamshi Beknazarov. — Hozir esa shu ish bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarimiz soni 83 taga yetgan. Bu esa shuncha oila ish bilan ta'minlanganini va yaxshi daromad topayotganini anglatadi. Ishbilanlarimiz soni ko'payib, aholi farovonligi oshib borayotgani, odamlarimizning boqimandalik kayfiyatidan chiqib, davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalanishiga harakat qilayotgani e'tiborga molik.

Butun mamlakatimizda bo'lgani kabi bu yerda ham aholi salomatligini saqlash va tibbiy xizmat sifati oshirishga jiddiy e'tibor qaratilayapti. Qishlog' vrachlik punkti binosi rekonstruksiya qilinib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlangan, bundan tashqari, aholining talab va takliflariga binoan ilgari 100 o'rinni masjidding 350 o'ringa kengaytirilgani islomobodliklar uchun katta qulaylik.

Ha, bugun Islomobodda aholining barcha ehtiyojlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar va qulayliklarni ko'rib, bu yerni qishlog' degingiz kelmaydi. Uning shahardan hech qulayshadigan joyi yo'q. Ta'kidlash joizki, bunday keng ko'lamlilik ishlar nafaqat Xatirchi tumani yoki Navoiy viloyatidagi mahallalarda, balki inson qadri ulug'lanayotgan butun mamlakatimizda, jonajon O'zbekistonimizning barcha qishloqlarida keng quloq yozmoqda.



## MAYDONDA OSIYONING ENG QIMMAT FUTBOLCHISI




Shu kunlarda dunyodagi eng nufuzli va yetakchi nashrlar sahifalarida o'zbek sportining yutuq va natijalari tahliliga bag'ishlangan maqolalar tez-tez chop etilayotir. Bu bejiz emas. Zotan, so'nggi yillarda yurtimizda sport sohasidagi islohotlar avj pallaga kirdi. Davlat dasturlarida belgilangan aniq va maqsadli yo'nalishtirish orqali sport nafaqat sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, balki mamlakatimiz nufuzini xalqaro maydonda yuksaltiradigan muhim jabhaga aylandi.

Bugun hammamizning nigohimiz ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgan milliy terma jamoamiz o'yinlariga qaratilgan. Ko'p millionli xalqimiz bilan birga xorijdagi tanqili va yirik mutaxassislar kelajagi porloq, safida qator xalqaro miqyosdagi yulduzlar jam bo'lgan jamoamizdan yaxshi natijalar kutayapti. Eldor Shomurodov, Abbosbek Fayzullayev, Abduqodir Husanov va boshqa umidli o'yinchilar ishtirokidagi bahslarga qiziqish katta. Agar erinmay dunyo xabarlarini kuzatsangiz, bunga amin bo'lasiz.

Ayniqsa, "K" guruhi bahslari doirasida 23-iyun kuni Portugaliya va O'zbekiston o'rtasida futbolchilarning bahslarga qiziqish katta. Mazkur uchrashuvga hozirning o'zidan juda ko'p munosabatlar bildirilmoqda. To'g'ri, guruhdagi boshqa raqiblar ham chakana emas. Aslida, JCH bahslarida kuchsiz jamoaning o'zi yo'q. Ammo portugallar safida jahon miqyosidagi megayulduz to'p suradi.

"Jahon futbolida eng ko'p gol urgan Portugaliya afsonasi Kristianu Ronaldu va o'zbekistonliklarning asosiy yulduzi Abduqodir Husanov o'rtasidagi to'qnashuvni tasavvur qilib ko'ring. Bo'lajak bahsda ular pozitsiya jihatidan tez-tez bir-biriga qarshi harakat qiladi: Kristianu hujum markazida, Abduqodir esa himoya chizig'i o'rtasida o'ynaydi", deb yozadi Qozog'istonning sport.kz nashri.

"Husanov "Manchester Siti"dagi jamoadoshlari Ruben Diash, Mateush Nunyesh va Bernardu Silvaga qarshi ham o'ynashiga to'g'ri keladi. Qolaversa, O'zbekiston milliy terma jamoasi safida Kristianu Ronaldu juda yaxshi tanidigan o'yinchilar ham bor. Xususan, 40 yoshli yulduz "Yuventus" sharafini himoya qilgan davrda Eldor Shomurodovga qarshi o'ynagan.



Jaloliddin Masharipov esa Ronaldu "An-Nasr"ga kelgan paytda portugaliyalik futbolchining sevimli 7-raqamini unga bo'shatib bergan. Ronaldu va Masharipov birga o'ynab, ancha do'stlashib qolganini ham o'zbek muxlislari yaxshi biladi", deyiladi maqolada.

Ha, nomdor sport nashrlari va internet tarmoqlari uchrashuv sanasiga oz vaqt qolganini sayin Ronaldu va Husanov qarama-qarshiligi qanday bo'lishi yuzasidan bahs-munozaralarni



qizdirishdan charchamayapti. Jumladan, The Athletic sport nashri Abduqodir Husanovni o'zbek futbolining Ronaldusi deb atadi va uni dunyoning kuchli 100 futbolchisi ro'yxatiga kiritdi.

"Kristianu Ronaldu faoliyatidagi oltinchi jahon chempionatida ishtirok etadi. Guruhning saralash bahslarida Portugaliya va O'zbekiston terma jamoalarining yuzma-yuz kelishi Husanov va Ronalduning bevosita maydonda raqib bo'lishini anglatadi", deyiladi nashr sahifasida.

The Athletic nashri maqolasida keltirilishicha, jahon birinchiligida yaxshi natijalar ko'rsatishga bel bog'lagan O'zbekiston terma jamoasining "Manchester Siti"dagi 22 yoshli markaziy himoyachisidan umidi katta.

Qolaversa, Transfermarkt portali kuni kecha APLdagi futbolchilarning yangilangan narxini e'lon qildi. Unga ko'ra, futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi va "Manchester Siti" himoyachisi Abduqodir Husanovning transfer narxi 15 million yevroga ko'tarilib, 50 million yevroga yetdi. Oxirgi paytlardagi Abduqodirning o'yinidagi o'sish uning transfer narxiga ham ta'sir qildi.

Shu tariqa Abduqodir qit'aning eng qimmatbaho futbolchisi hamda Angliya premyer-ligasidagi eng qimmat osiyolik vakilga aylandi. Endi ana shu mustahkam himoya devori sobiq o'zi kabi kuchli jamoadoshlari safida dunyo nigohi qadalgan yashil maydonlarga tushadi.

Raqiblar, ehtiyot bo'ling!

**Nodir MAHMUDOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"  
gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-646.  
30166 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova  
Musahhih: Akbar Qarshiyev  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy